

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Filologiya fakulteti

dekani _____ dots. I.Xudoynazarov

“ _____ ” _____ 2013- yil

“O'zbek filologiyasi” ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

IV kurs 41-guruh talabasi

**Mahmudova Muhayyoning “Poeziyada metaforaning o'rni
(A. Oripov ijodi misolida)”
mavzusida yozgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Talaba _____ Mahmudova Muhayyo

Ilmiy rahbar _____ f.f.n.dots. Imomova G

“ _____ ” _____ 2013- yil

“Himoyaga tavsiya etildi”

O'zbek adabiyoti kafedrası

mudiri _____ dots. G. Imomova

“ _____ ” _____ 2013- yil

Qarshi – 2013 yil

MUNDARIJA

1. Tushuntirish qismi - Kirish.....	3-bet
-------------------------------------	-------

I.BOB. POETIK KO'CHIMLAR VA ULARNING GURUHLANISHI

I.1. Metafora – shoir tafakkurining o'ziga xos ta'sir ifodasi.....	14-bet
--	--------

I.2. A.Oripov she'riyatida metafora va metaforiklik.....	19-bet
--	--------

II.BOB. A.ORIPOV SHE'RIYATIDA POETIK TASVIR VA PEYZAJ

II.1. Ramz – simvol shoir she'riyatining asosiy pafosi.....	34-bet
---	--------

II.2. Shoirning jonlantirish va o'xshatishdan foydalanish mahorati.....	42-bet
---	--------

XULOSA

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	56-bet
---	--------

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqilligimiz tobora mustahkamlanib, o'zining ijobiy samaralarini bera boshlagan bugungi kunda xalqimiz oldida hayotning moddiy va ma'naviy asoslaridan kelib chiqadigan ulkan vazifalar turibdiki, ularni amalga oshirishda adabiyot va san'at, umuman, ma'naviyatning ahamiyati benihoya kattadir. Zero, O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "...ma'naviyatni tushunish anglash uchun avvalo, insonni tushunish, anglash kerak¹". Mustaqillik yillarida adabiyotni mafkura vositasi sifatidagina emas, balki san'at hodisasi sifatida o'rganishga ustuvor ahamiyat berila boshlandi. Shu ma'noda alohida ijodkorning badiiy tafakkur tarzi, ijodiy uslubiga xos xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Haqiqatan ham, "...yozuvchilik – bu oddiy kasb emas, peshonaga yozilgan taqdir. Uning maktabi ham, dorilfununi ham bitta. U ham bo'lsa, bir umr hayotning ichida bo'lish, o'z xalqi bilan hamdardu hamnafas bo'lib yashash, haqiqat va adolatga sadoqat bilan xizmat qilishdir²". Chunki bu yo'nalishda amalga oshiriladigan tadqiqotlar yangi davr o'zbek adabiyotining poetik takomiliga, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy muammolarni hal qilishga zamin hozirlaydi.

O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab she'riyatimiz yangilanish davriga kirdi. Yangilanish mazmundagina bo'lmay, ifoda tarzida ham to'la namoyon bo'ladi. Shu davrdan e'tiboran o'zbek she'riyati 30-yillardan boshlab urfga aylangan ritorikadan voz kechdi va obrazli tafakkur tomon yuz burdi, ya'ni asliga qayta boshladi. Ushbu jarayonda Abdulla Oripov ijodi juda muhim bir halqani tashkil etadi. Zero, uning ijodida davr she'riyatida kuzatilgan asosiy tamoyillardan biri, badiiy tafakkur tadrijidagi bosh yo'nalish deb qarash mumkin. Demak, mavzuning o'rganilishi XX asr o'zbek she'riyati taraqqiyotidagi muhim bir bosqich haqidagi tasavvurlarimizni boyitadi. Agar 60-yillardan boshlab she'riyatda metaforiklik muttasil kuchayib borgan e'tiborga olinsa, mavzu tadqiqi bugungi Istiqlol davri

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 29.

² Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – B.17-18.

she'riyatimizning poetik o'ziga xosligi va taraqqiyot tamoyillarini idrok etishga yordam berishi ham ayon bo'ladi.

Nihoyat, metafora va metaforiklik masalasi bugungi kunda nafaqat filologiya, balki falsafa, mantiq, germeneytika, psixologiya, kognitologiya kabi qator gumanitar ilm sohalari tomonidan ham o'rganilib, metaforaning mohiyati, strukturasi, xillari va ko'rinishlari borasida yangi-yangi qarashlar paydo bo'ldiki, natijada ular erishgan yutuqlar asosida adabiyotshunoslikda ham bu masalani qayta ko'rish zarurati yuzaga keladi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Ilmda "metafora" termini paydo bo'lganidan beri o'tgan ikki yarim ming yildan ziyod vaqt davomida metafora, metaforiklik masalalariga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Agar antik davrlarda metaforaga ko'proq ritorikaning ob'yekti sifatida qaralgan bo'lsa, keyingi davrlarda unga poetikaning, aniqrog'i, poetik stilistikaning ob'yekti sifatida qaraldi, sharq va g'arb olimlari tomonidan atroflicha tadqiq etildi. Metaforani faqat ko'chim yoki badiiy vosita emas, balki inson tafakkurining, xususan, obrazli tafakkurning muhim mexanizmlaridan biri sifatida tushunish bilan bog'liq holda XIX asr o'rtalaridan adabiyotshunoslik qatori tilshunoslik, falsafa, mantiq, psixologiya, semiotika, kognitologiya kabi ko'plab ilm sohalari ham o'zining qiziqishlari doirasida tadqiq etib keladi. O'zbek adabiyotshunosligida ham metaforani ko'chim sifatidagina tushunish barham topib, uning badiiy asarda, badiiy tafakkurda tutgan o'rni, ijodiy uslubni belgilovchilik xususiyati o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab o'rganila boshlandi. Shuningdek, metaforani tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etilgan, alohida ijodkor she'riyatida tutgan o'rnini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar yaratildi.

Hozirgi o'zbek she'riyatining yirik vakili Abdulla Oripov ijodi 60-yillarning o'rtalaridan boshlab adabiyotshunoslik va tanqidning diqqat markazida turadi deyish mumkin. Shoir ijodi haqida M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, B.Nazarov, B.Akramov, N.Rahimjonov, O.Abdullayev, S.Meli, Y.Qosimov, N.Afoqova, M.Rahmonova, G.Ashurova, I.Jabborov, A.Hamdamov kabi adabiyotshunoslar, tilshunos R.Yusubova kabi ko'plab olimlarning maqola,

risola va tadqiqotlari yaratilgan. Jumladan, N.Afoqovaning nomzodlik dissertatsiyasida shoir ijodidagi badiiy san'atlar maxsus tadqiq etilgan bo'lib, mavzumizga bevosita aloqador fikrlar bildirilgan. M.Rahmonova shoir asarlarining hayotiylik va badiiy butunlik masalasini, G.Ashurova shoir she'riyatining obrazlar tizimi, g'oya va badiiy ko'lamining xalqona, milliy qirrasini ilmiy asosda o'rgangan. Biroq shunga qaramay, hozirga qadar Abdulla Oripov she'riyatida metaforaning o'rni, o'ziga xosligi kabi masalalar monografik tarzda maxsus o'rganilgan emas. Shu ma'noda uni ilmiy nuqtai nazardan maxsus o'rganish va muhim nazariy umumlasmalar chiqarish mazkur ishning dolzarblik darajasini ko'rsatadi.

Tadqiqot obyekti. Zamonaviy o'zbek she'riyatida metaforaning ishlatilishi Abdulla Oripov ijodi misolida tadqiqot obyekti qilib olindi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi A.Oripov she'riyatidagi metaforalarni tizimli o'rganish, poetik mavzuni rivojlantirish va asar butunligini ta'minlashda metaforaning rolini tadqiq etish orqali metaforiklik shoirning uslubiy o'ziga xosligini belgilovchi bosh omil ekanini ochib berishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari. Mazkur maqsadiga erishish uchun quyidagi **vazifalarni** bajarish ko'zda tutildi:

- metafora va uning badiiy tafakkurdagi, xususan, poeziyadagi o'rni masalasiga oid nazariy qarashlarni o'rganish va umumlashtirish;
- metaforaning bu jihatlarini A.Oripov she'riyati misolida ochib berish;
- A.Oripovga xos badiiy tafakkurda metaforiklikning ustuvorligi va buning omillarini o'rganish;
- shoir ijodidagi metaforalarning manbalarini aniqlash, ularning ko'chim, poetik obraz va butun boshli she'r darajasidagi ko'rinishlarini tavsiflash;
- metaforaning she'r butunligida tutgan o'rni, badiiy matndagi mazmuniy aloqalari va funsiyalarini tadqiq etish;

- shoir ijodidagi timsol she'rlarni tadqiq etish, ularning ko'rinishlarini tasniflash va qiyosiy asosda she'r-metaforaning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi. A.Oripov she'riyatidagi metaforalarning ilk bor yizim sifatida tadqiq etilgani, metaforiklikka shoir badiiy tafakkuriga xos bosh xususiyat sifatida qaralgani va shundan kelib chiqib metaforiklik ijodkor uslubini belgilagan asosiy omil ekanligining ochib berilgani bilan bog'liqdir. Metaforaning ko'chim, poetik obraz hamda she'r butunligi darajasida namoyon bo'luvchi ko'rinishlari alohida va bir-biriga bog'liq holda o'rganilgani; metaforaga xos poetik mavzuni uyushtiruvchilik, struktura belgilovchilik funksiyalari A.Oripovning metaforik yo'sindagi she'rlari tahlili orqali she'r-o'xshatish, she'r-allagoriya va she'r-metafora orasidagi mushtarak va farqli jihatlar ko'rsatilgani; timsol she'r ko'rinishlari tasnifiga aniqlik kiritilgani, bu ko'rinishlarning har biri aniq misollar yordamida tavsiflangani ham ishning yangilik jihatlaridir.

Tadqiqotning metodologik asosi va metodi. Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning milliy mafkura, milliy g'oya, ma'naviyat va madaniy qadriyatlarga doir nazariy qarashlari, shuningdek adabiyotshunoslardan I.Sulton, O.Sharafiddinov, U.Normarov, S.Mamajonov, M.Qo'shjonov, N.Karimov, B.Nazarov, A.Rasulov, B.Sarimsoqov, N.Rahimjonov, I.G'afurov, S.Meliyev kabi olimlarning nazariy fikrlari, fundamental tadqiqotlari tashkil etadi.

Mavzuni tadqiq etishda madaniy-tarixiy, tarixiy-funksional, biografik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati. A.Oripov ijodida metafora masalasining tizim holida o'rganilgani she'riyatimizda o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab kuzatilgan poetik yangilanish omillari, yo'nalish va manbalari haqidagi ilmiy tasavvurlarni kengaytiradi. Ayni jihat ishning A.Oripov ijodi masalalari, shuningdek, she'r poetikasi, obrazlilik, ijodkor uslubi kabi nazariy muammolar

bo'yicha amalga oshirilajak tadqiqotlar uchun manbaviy asos bo'la olishini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari va materiallaridan ta'lim tizimida yangi o'zbek adabiyoti tarixi va adabiyot nazariyasi kurslarini o'qitishda, maxsus kurs va seminarlar tashkil qilishda, o'quv adabiyotlari yaratishda manba sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishimizning hajmi. Bitiruv malakaviy ish ikki bob, kirish, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I.BOB. Poetik ko'chimlar va ularning guruhlanishi

San'atning har qanday turi, shu jumladan, badiiy adabiyot ham originallikni va rang-baranglikni sevadi. Maxsus badiiy tasvir vositalarining qo'llanilishi adabiy asar tilini shirali, bo'yoqdor, rang-barang bo'lishiga yordam beruvchi omillardandir. Bu, xususan, she'riyat tilida yaqqol seziladi.

Bir shoir o'z asarida chuqur falsafiy fikr va yuksak mantiq kuchi bilan, boshqa bir shoir dilni qitiqlovchi mayin lirizm bilan, yana birovi so'z gavharlarini tanlab she'riyat ipiga marjondek chiroyli qilib tizishi bilan, yana biri o'z she'rlarining qo'shiqday ravon, ohangraboligi bilan, yana biri esa maxsus badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalanib, obrazli manzara chizish bilan o'quvchi qalbiga kirib boradi, uni maftun etadi. Har bir maxsus badiiy tasvir vositalarini o'z o'rnida qo'llash, uni g'oyaviy-badiiy maqsadga xizmat qildirish – so'z san'atkorlaridan o'ziga xos mahorat talab qiladi.

Maxsus badiiy tasvir vositalari asarning poetik bezagigina bo'lib qolmasdan, balki badiiy g'oyaga aniqlik kiritishning haqqoniy yo'li hamdir. Asarda hayotning haqqoniy aks ettirilishi, xarakterlarning tipikligi, san'atkor talqin etgan ijtimoiy idealning muhimligi, asarning xalqchilligi, yozuvchining shakl va mazmun birligiga erishishdagi mahorati, asarning estetik-tarbiyaviy ta'sirining kuchli bo'lishi badiiy tasvir vositalarini mohirona ishlata bilish san'atiga ham bog'liqdir.

Adabiy asarda so'z asil ma'nosida yoki ko'chma ma'nosida qo'llaniladi. Agar asar tilida kelgan so'z asil ma'nosida emas, balki ko'chma ma'noda qo'llangan bo'lsa – u maxsus badiiy tasvir vositasi hisoblanadi. Umuman, asardagi barcha so'zlar ham tasvir vositasi, ammo ko'chma mano anglatganlari alohida ahamiyat kasb etadi – ular maxsus badiiy tasvir vositalari sifatida o'rganiladi.

So'zning asil va ko'chma ma'nosi o'rtasidagi farqni ajratib-tushunib olish uchun quyidagi misralarga nazar tashlaylik:

*Boshqacha qanot bor, ko'kka uchadir,
Shohlarga qo'nadir, bog'da yayraydir.
So'zlari sadafdek, tovushi naydek,
Kuyini har yerda elga sayraydir.*

*Menda-da **qanot** bor, lekin **bog'langan**...*

***Bog'** yo'qdir, sjoq yo'qdir, qalin devor bor.*

So'zlari sadafdek, tovushi naydek

Kuyim bor... uni-da devorlar tinglar.

Adabiy asarda so'z yoxud so'zlar birikmasining o'z ma'nosida emas, ko'chma ma'noda qo'llanilish usuli fanda trop (yunoncha: **trofos** – ko'chim, aylanish)lar deb yuritiladi. Mumtoz adabiyotimizda trop, asosan, “majoz” deb yuritilgan.

Troplar, odatda, she'riy nutqni boyitadi, unda yangi mazmundagi yangi so'z birikmalarini yaratadi, shoirning tasvir obyektiga munosabatini ifodalashga imkoniyat tug'diradi. Shoir troplar vositasida tasvir obyektini individuallashtiradi, uni yanada aniqroq-yorqinroq ochadi, kitobxon u haqda obrazli tasavvurga ega bo'ladi. Troplar g'oyatda serqirra: “ikki predmet yoki hodisani chog'ishtirish, o'xshatish troplarga asos qilib olinadi. Ya'ni predmet yoki voqea-hodisa haqida aniq, yorqin tasavvur hosil qilish uchun unga boshqa biror predmet yoki voqeaning belgisi ko'chiriladi, o'xshatiladi”.

Yuqorida keltirilgan she'rda shoir “qanot”, “shox”, “bog'”, “qalin devor”, “kuy” so'zlarini o'z ma'nosida emas, ko'chma ma'noda qo'llab (“qanot” –erkinlik, “shox” va “bog'” – qo'nalg'a, o'lka, “qalin devor” – qamoqxona, “kuy” – dard, erksizlik) obrazlilikka erishgan bo'lsa, “so'zlari sadafdek tovushlari naydek” o'xshatishlari orqali ikki hodisa: so'z va sadaf, tovush va nay bir-biriga qiyoslanib, so'z va tovushning sifati, belgisi ochilmoqda. Shu tariqa, shoir she'rda obrazlilikka va estetik ta'sirchanlikka erishgan.

Troplar rang-barang ko'rinishlarga ega. Ular odatda, so'zning asil va ko'chma ma'nolari o'rtasidagi aloqaga va tasvir obyektiga munosabatiga qarab quyidagicha guruhlanadi:

1. O'xshash troplar (komparativ)
2. Qorishiq troplar (kontigual)
3. Zidlov troplar (kontrast)

1. O'xshash troplar (ko'chimlar). Ko'chmlarning bu guruhiga o'xshash ko'chimlar (tasvir obyekti tashqi ko'rinishi jihatidan o'ziga o'xshashroq bo'lgan obyektga qiyos qilinadi; O'xshash ko'chmlarning umumiy xususiyati shundaki bular da ikki narsa (o'xshatilayotgan narsa va o'xshatilgan narsa) bir-biriga qiyoslanadi yoxud bir narsa (o'xshatilayotgan narsaning xususiyatlari boshqa narsa o'xshayotgan narsa – tasvir obyekti ga ko'chirib o'tlaziladi va shu tariqa tasvir obyekti obrazli, yorqin va jozibali ifodalanadi. O'xshash troplar o'xshatish, sifatlash, metafora, ramz kabi ko'rinishlarga ega. Biz ushbu bobimizda ko'proq nazariy qarashlarga fikrimizni qaratamiz va kezi kelganda A.Oripov va boshqa shoirlar she'riyatiga murojaat qilamiz.

O'xshatish – ko'chmlarning bir turi – narsa, hodisa yoki holatlarni muayyan umumiylikka va o'xshashlikka ega bo'lgan boshqa narsa, hodisa yoxud holat bilan qiyoslashdir. Tasvirlanayotgan narsa yoki hodisa o'xshatish vositasida yorqin va aniq ifodalanadi.

Bundan tashqari troplarning bu ko'rinishida majozlar ham mavjud.

Majoz (arab. – ko'chma ma'noda qo'llanilgan so'z) – trop, murakkab ko'chim. Majoz so'z yoxud so'zlar birikmasining asil ma'nosida emas, balki ko'chma ma'nosida qo'llanilishidan hosil bo'ladi.

Professor Abdurauf Fitratning aytishicha, o'xshatish majozga mansub emas. Negaki, o'xshatishda o'xshagan va o'xshatilayotgan narsani ifodalovchi ikki so'z o'z ma'nosida keladi: ular bir-biriga o'xshatiladi, qiyoslanadi. Masalan, “Navoiyni sevib o'qiyman” va “Boshing omon bo'lsin” degan gaplarni olib ko'raylik. Birinchi gapda “Navoiy asarlarini sevib o'qiyman” va ikkinchi gapda “Sog'-salomat bo'lgin” degan ma'no anglashiladi. Demak, “Navoiy” va “bosh” so'zlari asil ma'nosida emas, ko'chma ma'nosida ishlatilgan ekan. “Navoiy” va “bosh” so'zlari **majozlar** deb yuritiladi.

Majoz adabiyotda, xususan, she'riyatda keng qo'llanilgan. Sirasini aytganda, istiora, metonimiya, ramz, allegoriya, sinekdoxa, kinoya, perifraz kabilar ham majozning rang-barang ko'rinishlaridandir. Mumtoz she'riyatimizda keng ishlatilgan gul, bulbul, kun, tun, oy kabi an'anaviy badiiy obrazlar ham aslida

majozlardir. Chunonchi, shoir Cho'lpon she'riyatida po'rtana, bulut, oy, yulduz, quyosh, kishan singari majoziy obrazlar tez-tez uchrab turadi. Misol:

Nega mening qulog'imga tun va kun.

Boyqushlarning shumli tovushi baqirar?

*Nega menim borlig'imga har **o'yin***

*Va **kulgu** og'u separ, o't qo'yar?*

Bu she'riy parchadagi "tun", "kun", "boyqush", "o'yin", "kulgu" so'zlari majoziy ma'noda qo'llanilgan.

2. Qorishiq ko'chimlar. Ko'chimlarning bu guruhiga noo'xshash ko'chimlar kiradi (tasvir obyekti tashqi ko'rinishi jihatidan unchalik o'xshash bo'lmagan, ammo tushunchada yaqinlik bo'lgan obyektga yashirin qiyoslanadi. Bu guruhdagi ko'chimlar murakkab, rang-barang, qorishiq ko'chimlarga mubolag'a, sinekdoxa, prefrazlar mansubdir. A.Oripov she'rlarini tahlil qilishdan avval yuqoridagi ko'chimlarga ta'rif berib o'tsak:

Mubolag'a (arabcha – lof urish, bo'rttirish), giperbola – tasvirlanayotgan shaxs, narsa va voqea-hodisaning muayyan jihatlarini bo'rttirib, kuchaytirib tasvirlash usuli.

Shoir taassurotni kuchaytirish, hayajonni oshirish, obrazli bo'rttirish maqsadida mubolag'a ishlatadi. Mubolag'ali tasvir, asosan, ikki prinsip asosida yuzaga keladi: harakat va holatni bo'rttirishga qaratilgan tasvir beriladi. Bunday belgi va xususiyatlarni kuchaytirishga xizmat qiladigan mubolag'a zamirida tashbihiy bog'lanish bo'ladi. Mubolag'a tabiatan adabiy janrlarga bog'liqdir.

Badiiy adabiyotda mubolag'aning quyidagi turlari qo'llaniladi:

a) **tablig'** – amalda bo'lishi mumkin bo'lgan xususiyat ifodasi:

Uxlagan izini tramvay har kun

Tong chog'i guldirab, yanchib o'tadi

(Oybek)

b) **ig'roq** – faqat tasavvur qilish mumkin, amalda mutloqo bo'lmaydigan xususiyatlar ifodasi:

*Otlar kishnar, qizlar kuylar, **tinmay***

*ishlar dehqonlar,
quyosh oltin buloqdir, qaynar, toshar...*

Ko'k tiniq.

(Oybek)

d) **g'uluvv** - tasavvur qilish qiyin bo'lgan, amalda bo'lishi sira mumkin bo'lmagan xususiyatlar ifodasi:

*Orazin yopqach ko'zumdin sochilur har lahza yosh,
O'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh.*

(Alisher Navoiy)

Mubolag'a usuli, xususan, romantik asarlarda, shuningdek satirada ko'p qo'llaniladi. Bolalar adabiyotida ham bu usul asosiy badiiy tasvir vositalaridan biri hisoblanadi. Biroq, Abdurauf Fitrat aytganidek, mubolag'a chin (samimiy) bo'lsa, judayam oshirib yuborilmasa, zo'raki bo'lmasa, yasamalikdan uzoq bo'lsa, tuyg'ulardagi kuchlilik-o'tkirlikni anglatishga katta yordam beradi³.

Xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotimizda ba'zan orttirmali mubolag'alar ham uchraydiki, ular adabiyotshunoslikda **bulug'** va **ifrat** deb yuritiladi. Misol:

*Tikilsam quriydi daryoning gumi,
Na'ra tortsam qular qo'rg'onning timi.*
(“Alpomish”).

*Bu o'zbekni alp Qorajon biladi,
Changallasa tog'ni talqon qiladi.*
(“Alpomish”).

Litota (yunoncha litotes – sodda, kichik, evida) – tasvir obyektini ataylab kichraytirib, zaiflashtirib tasvirlash usuli. Litota mubolag'a (tasvir obyektini ataylab oshirib, bo'rttirib ko'rsatish)ning butunlay aksidir. Yozuvchi o'z g'oyaviy-badiiy ahamiyatini ta'kidlab, qabartiribroq ko'rsatish niyatida uning qudratini, hajmini, mavqeini ataylab kichraytirib tasvirlaydi.

Shoir Hamid Olimjon “O'zbekiston” she'rida:

³ Fitrat A. Adabiyot qoidalari. Toshkent, O'zdavnnashr, 1926, 78-bet.

*Chiroylidir go'yo **yosh kelin**,*

Ikki daryo yuvar kokilin

desa, shoir Cho'lpon "Yana ko'klam" she'rida:

Kechaning sirli qo'yniga bekinib,

Kechaga totli bo'salarni berib,

Yuzidan pardalarni irg'itgan,

*Dunyoga bir **kelin** kabi chiqqan*

Deb yozgan. Agar Hamid Olimjon O'zbekistonni "yosh kelin" degan bo'lsa (vodiylarni "kokil" desa), Cho'lpon ko'klamni "bir kelin" timsolida ko'ryaptiki, bular ham, albatta tasvirning litota usuli deb yuritiladi.

Sinekdoha – ham ko'chimning bir turi bo'lib miqdor jihatidan bir predmet belgilarini boshqasiga ko'chirish usulidir. Yoki bo'lak, qism orqali butunni ifodalovchi sinekdohalar.

Qorishiq ko'chmlarning yana bir ko'rinishi **prifraz**dir.

Prifaz (yunoncha pri – atrof, phrasis – so'zlayman) – majozlarning bu turida nutqning ifodaviyligini oshirish maqsadida narsa, odam, voqea-hodisalar nomini ularning ma'nolarini, xususiyatlarini ifodalovchi boshqa so'z va ifodalar almashtirish usuli.

Yuqorida biz qorishiq ko'chmlarning xususiyatlarini o'rgandik. Ana shu xususiyatlar A.Oripov she'riyatining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

I.1. Metafora – shoir tafakkurining o'ziga xos ta'sir ifodasi

Metafora masalasi antik davrlardan boshlab o'rganib kelinadi. Xususan, Arastu metafora so'zini keng ma'noda, umuman, ko'chma ma'noli so'z ma'nosida qo'llagan. Ishda bu narsa Arastu "Poetika" sida metaforaga keltirilgan misollar tahlilida ko'rsatiladi. "Ritorika"da faylasuf bu fikrni aniq ifodalaydi: "Metaforaning to'rtta turi ichida analogiyaga asoslanganlari alohida e'tiborga molik". U metaforaning poeziyadagi o'rniga maxsus to'xtalmasa-da, poeziya tili haqidagi mulohazalaridan buni bilib olish qiyin emas. Arastu fikricha. Poeziya tili o'ziga xos so'z qo'llashni taqozo etadi, toki tanlangan so'zlar, bir tomondan, aniqlikni, ikkinchi tomondan, kundalik nutqdan farqlanib turishini ta'min etsin. Agar umumiste'moldagi so'zlar poeziya tilining aniqligini ta'minlasa, "glossalar, metaforalar, bezaklar... oliyjanob va ulug'vor" etadi, kundalik nutqdan farqlaydi. Yana "metafora yuksak darajada aniqlik, yoqimlilik va oxorlilik jozibasiga ega", undan o'rinli va bilib foydalanish nutqni bezaydi. Ya'ni, Arastu o'zi aytmoqchi "noodatiy so'zlar"ni, jumladan, metaforalarni **poeziya tilining belgilovchi xususiyati** deb hisoblaydi va ularga g'oyat katta ahamiyat beradi.

Arastu metaforaning ahamiyatini tushuntirarkan, "bizga qandaydir bilim beradigan so'zlar yoqimli" deydi, chunki metafora ikkita narsani o'xshatish orqali "turga xos tushuncha yordamida bilim beradi va ma'lumotlar yetkazadi". Ya'ni Arastu metaforaning badiiy tafakkur unsuri ekaniga diqqat qiladi. Shuningdek, ishda hozirda ham ommalashgan "metafora - sqiq o'xshatish" degan qarash Arastudan boshlangani ko'rsatiladi. Biroq Arastu fikricha, tashbeh kamroq yoqadi, chunki u uzunroq (ya'ni ko'p so'z bilan ifodalanadi) va "mana bu – o'sha" deya tasdiqlamaydi; ikkita obyekt ochiq o'xshatilganidan ko'ra yashirin o'xshatishning estetik samarasi kuchliroqdir.

Sharq mumtoz adabiyotshunosligida ham metafora – istiora talqini shunga o'xshash yo'lni bosib o'tgan. Jumladan, Rashididdin Vatvot har qanday ko'chimni istiora hisoblasa, Qays Roziy ko'chimning o'xshashlik asosidagi turinigina istiora sanagan. Shuningdek, Sharqda ham tashbeh va istiora orasidagi yaqinlikka e'tibor qaratilgan. Jumladan, Atoulloh Husayniy tashbehi "kinoyat bilan istiora orasida

farq yo'q" deydi, "biroq istiora bilan tashbeh bir narsa " demaydi. Uning fikricha, majoz turi sifatida istiora haqiqat emas, lekin "fasohatu balog'at arbobi qoshinda haqiqattin yaxshiroqdir".

Antik Yunonistonda asos solinib, keyinchalik antik Rimda davom ettirilgan ritorika va poetika sohalari VIII asrdan ilmi balog'a va ilmi badi' nomlari bilan Musulmon Sharqida rivojlangan. Jumladan, istiorani o'xshashlik asosidagi ko'chim turi deb ta'riflagan ilmi badi' ko'chimning aloqadorlik asosidagi turini ham farqladi va uni kinoya (metonimiya ma'nosida) istilohi bilan atadi. Demak, XV asrga kelib mumtoz adabiyotshunoslik ko'chimning she'riyatda qo'llanuvchi asosiy turlari - metafora va metonimiyani bir-biridan farqlab, ularni nazariy tavsiflash vazifasini bajarib bo'lgan edi.

Yevropada poetika sohasiga Uyg'onish davridan boshlabgina e'tibor qaratila boshlandi. Arastu "Poetika" siga sharhlar, unga o'xshatma tarzida yozilgan ko'plab risolalarda uslub va poetik figuralar masalasiga alohida o'rin berilgan. Lekin ularda masala Arastu ruhida talqin qilinib, metafora masalasida yangi gap aytilmadi. Klassizm davrida ham an'analar ustuvor bo'lsa, barokko ijodda individ roliga e'tiborni kuchaytirdi, individual nigoh bilan ko'rilgan va his qilinganni o'ziga xos tarzda ifodalashga rag'bat bildirdi. Natijada barokkoning ifoda vositalari orasida metafora hukmron mavqe egalladi, metaforiklik barokko uslubining eng muhim belgilovchi xususiyati bo'lib qoladi. Ratsionalizm mavqeidagi ma'rifatchilik vakillari ham metaforaga salbiy munosabatda bo'lganlar. Chunki ular nutqning birlamchi vazifasi fikrni ifodalash va bilimni yetkazishda deb biladilar. Metafora va boshqa ko'chimlar esa nutqning shu funksiyasiga halaqit beradi, ular odamni yolg'on g'oyalarga ishontiradi, ehtirolarini qo'zg'ab, aqlini adashtiradi deb o'ylaydilar. Aksincha, romantizm inson tafakkurida, jumladan, badiiy tafakkurda metaforaning o'rni ahamiyati juda katta deb hisoblaydi.

Metaforaning poeziyadagi mavqei va roli muttasil ortib borgan, XVIII asrdan metaforaga "nutq bezagi" gina emas, tafakkur bilan bog'liq hodisa sifatida qarash kuchayib kelgan. Bu esa XX asrga kelib metaforani tafakkur mexanizmlaridan biri sifatida tushunishni ustuvor etib, uning bilish jarayonidagi

ahamiyatini yangicha baholashni taqozo etdi. Natijada metafora nafaqat filologiya, balki falsafa, germeneytika, psixologiya, mantiq, fan metodologiyasi kabi sohalarining ham obyekti bo'lib qoldi.

Metafora obrazli tafakkur natijasi bo'lib yaraladi va, garchi, umuman, til hodisasi bo'lsa ham, bu xususiyatini til estetik funktsiya bajaruvchi poetik nutqdagina to'la namoyon etadi. Zero, metafora narsa-hodisani shunchaki atab qo'ymaydi, balki uni boshqa narsa-hodisaga qiyosan tavsiflaydi, ongimizda atalayotgan narsa haqidagi jonli tasavvur – obraz yaratadi. Bu obraz poetik nutqdagina aslicha, ya'ni obraz sifatida qabul qilinadi. San'at, xususan, poeziya obrazli tafakkur qilish va obrazli ifodadir. Shunga ko'ra metaforani faqat nutq bezagi emas, balki badiiy tafakkur mexanizmi sifatida tushunilsa, to'g'ri bo'ladi. Chunki metafora shoirlarga o'z ichki olamini (tashqi olamga qiyosan) va tashqi olamini (ichki olamga qiyosan) anglashga yordam beruvchi tengi yo'q vositadir.

Hozirda badiiy adabiyotdagi metafora ma'no ko'lamini ham benihoya kengaytirgan: o'xshashlik asosida ko'chma ma'noda qo'llangan birgina so'zni ham, matnning bir bo'lagi (misra, band; jumla, abzas)da ifodalanuvchi obrazni ham, ba'zan esa butun boshli asarni to'laligicha ham metafora deb atayveramiz. To'g'ri, keyingi ikki holni ba'zan "yoyiq metafora" yoki "metaforik obraz" deb aniqlashtiramiz, lekin ko'proq qisqa qilib "metafora" deymiz. Ya'ni avvaliga metafora terminida ma'no torayishi (umuman ko'chma ma'nodagi so'z-o'xshashlik asosidagi ko'chma ma'noli so'z) yuz bergan bo'lsa, yangi davrdan boshlab unda ma'no kengayishi jarayoni kuzatiladi. Natijada, endi metaforani juda keng, ya'ni poeziyada (umuman san'atda)gi bir narsa-hodisa mohiyatini ikkinchi bir narsa-hodisa orqali ochish deb tushunila boshlandi.

San'atdagi, jumladan, poeziyadagi obraz konkret his etiladi, demak, u narsaning aksigina emas, balki uning o'zi boshqa narsadir. Obraz o'zi aks ettirayotgan narsani anglash vositasi ekanligini esga olsak, uning o'zi tabiatan metaforik ekanligi ko'rinadi. Xuddi shunday yondashuv butun badiiy asarga nisbatan ham qo'llanishi mumkin, zero, ma'lumki, estetika va adabiyotshunoslikda badiiy asarning o'zi butun holicha bitta obrazga teng degan qarash mavjud.

Demak, poeziyada metaforaning o'rniga juda katta ahamiyat berilishi, uning asosida o'xshashlik prinsipi yotadi deyilishiga yetarli asos bor. Sababi, metafora prinsipi poetik asarning barcha sathlarida tilidan boshlab kompozitsion qurilishigacha amal qiladi. Faqat konkret asarda bu prinsip sathlarning hammasida ham dominant xususiyat sifatida yaqqol ko'zga tashlanmasligi mumkin.

Metaforaga har doim funksional jihatdan qarash kerak. Bunda bir tomondan, uning shoirga dilidagini ifodalashga, ikkinchi tomondan, she'rxonga ularni his qilishga qanchalik yordam berayotganini diqqat marakaziga qo'yish muhim. Zero, metafora ijodiy faoliyat mahsuli ekan, xuddi badiiy asar yoki obraz kabi ikkala tomonni, ijodkor va o'quvchini birdek nazarda tutishni taqozo etadi. Demak, metaforaning she'riyatdagi o'rne va ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning she'riy matnda bajarayotgan funksiyalarini ko'zdan kechirish zarurdir.

Shulardan kelib chiqib, ishda metaforaning poeziyada bajaradigan funksiyalarini ayrimlari A.Oripov she'riyati misolida o'rganildi. Jumladan, "Chuvaldi o'ylarim sensiz" she'ri misolida metafora inson qalbidagi atash imkoni bo'lmagan holatlarni tasvirlab ko'rsatish, shoir uchun his-tuyg'uni ifodalash, she'rxon uchun esa qayta his qilib ko'rishga imkon yaratishi ko'rsatildi. Poetik metafora – obraz, u lisoniy metafora kabi atashga emas, ifodalashga qaratilgandir. Zero, poetik metafora so'z yoki so'zlardan tarkib topuvchi matn bo'lgani holda, unda ifoda so'z (yoki so'z birikmasi, gap, matn) vositasida emas, balki uning yordamida yaratilgan obraz orqali amalga oshadi. She'rdagi "chuvalmoq" fe'l-metaforasi lirik qahramon ruhiyatida kechib turgan noaniqlik (o'ylarining tagiga yetolmaslik, ziddiyatli o'ylar girdobida bir xas kabi chirpirak bo'lish) holatini aniq ifoda etadi. Metafora holatni atayotgani yo'q, jonli tasvirlamoqda. Agar metaforik ifodalash o'rniga holat atalganida, lirik holatni obrazli tasavvur qilish qiyin bo'lur edi. Ikkinchi tomondan, atash aniqlikni talab qiladi. Lirik holatni esa, birinchidan, aniq atashning imkoni yo'q, ikkinchidan, har qanday aniqlik holatni chegaralab qo'yadi. Natijada shoir uchun ifoda imkonlari, she'rxon uchun tasavvur imkonlari cheklanib qoladi. Metafora esa, aksincha, ayni shu imkonlarni kengaytiradi. Shu

jihati bilan metaforik ifoda ijod jarayoni uchun ham, o'qish jarayoni uchun ham birdek muhim ahamiyat kasb etadi.

Metafora – lirik subyekt kayfiyatini berish, emotsional tonallikni belgilashning tengsiz vositasi. Buni A.Oripovning quyidagi she'ri misolida ko'rsatish mumkin:

Osmon ufqlarga separ kul rangin,

Bulutlar chopadi, xorg'in be ega.

Havo nega muncha ma'yus,

Havo nega muncha g'amgin:

Oh, men sendan ajraldim nega!...

She'r g'amgin, elegik ruh bilan yo'g'rilgan, buning ilk misradayoq ifoda topgani o'quvchini she'rni qabul qilishga emotsional jihatdan tayyorlaydi. She'rdagi kayfiyat asosini yo'qotish iztirobi, aza ruhi tashkil qiladi. Agar o'tmishda ayollarning azada boshlaridan kul sochish urfi bo'lgani eslansa, "osmon ufqlarga separ kul rangin" metaforasining ildizlari ko'zga tashlanadi. Demak, ilk satrni o'qigandayoq aza ruhini his qilishimiz bejiz emas, osmonning ufqlarga kul rangini sochishi bilan o'rtasidagi analogiyalar buning asosidir. To'g'ri, o'quvchi bu tafsilotni bilmasligi ham mumkin, lekin anglanmagan tarzda ham o'sha ruhni his qilaveradi. Zero, inson ongida suyak surib asrlardan o'tib keluvchi tarixiy xotira yashaydi va anglangan yo anglanmaganligidan qat'iy nazar, uning tafakkur tarziga ta'sir qiladi.

A.Oripov she'rlari tahlili orqali metaforaning fikrni original va ta'sirli ifodalash, matnlararo aloqa asosida an'ana va yangilik aloqasini yuzaga chiqarish, she'rga milliy ruh bag'ishlash, mazmunni uyushtiruvchi markaz bo'lish kabi funksiyalarni ko'rish mumkin. Bu esa metafora badiiy tafakkurning asosiy mexanizmi ekani, she'riyat asosida o'xshashlik prinsipi yotishi hamda katta o'rin tutishini ko'rsatadi.

I. 2. *A.Oripov she'riyatida metafora va metaforiklik*

“Adabiyot, she'riyat obrazlilik bilan tirikdir. She'riyatda samimiyat ham bo'lishi kerak. Shundagina u bir umr esda qoladi⁴”. Shoir she'riyat oldiga ikkita asosiy talabni qo'yadi: obrazlilik va samimiylik. Bularning birinchisi poeziyaning tabiati bilan, ikkinchisi esa ijodkor shaxs – shoir tabiati bilan bog'liqdir.

Badiiy obrazning materiali bir tomondan real voqelik, ikkinchi tomondan ijodkor shaxsidir. Metafora (hatto uning eng oddiy ko'chim darajasidagi ko'rinishi ham) obraz ekanligini e'tiborda tutsak, bu gap unga ham to'la tegishli. Arastu yaxshi metafora yarata olish, o'xshashlikni ko'ra olish iste'dodning belgisi deb bejiz aytmagan. Chunki o'xshashlik voqelikda mavjud bo'lsa, uni ko'ra olish, ijodkor shaxsi bilan bog'liq, yaxshi metafora esa shu ikkisining hamjihatligida yaratiladi.

A.Oripovning ilk ijodidagi lirik qahramon – atrofga shoirona o'tkir nigoh bilan boqib, undan hikmat uqayotgan odam. Shoir tabiat bilan inson, uning o'y-hislari, quvonch tashvishlari, kayfiyati orasida o'xshashliklar topadi va ular yordamida dilidagini izhor qilishga intiladi. U ilk mashqlaridanoq oddiygina izhor qilishga intiladi. U ilk mashqlaridanoq oddiygina izhor emas, poetik izhorga, obrazli ifodaga harakat qiladi. Albatta, oilasida hukm surgan adabiyotga alohida mehr uning shoir sifatida shakllanishida muhim omil bo'lgan. Lekin, bizningcha, A.Oripovning ulkan so'z san'atkori bo'lib yetishishida tug'ma iste'dodi bilan birga bolaligi o'tgan joylar tabiatining ham ulkan xizmati bor. Bular haqida shoir o'zi aytgan gaplar, bir qator she'rlar (“Yulduzlar”, “Bahor”) tahlili orqali tabiat uning uchun obrazli ifodaning birlamchi manbasi bo'lib xizmat qilganini ko'rishimiz mumkin.

A.Oripov: “Tabiat ona bo'lsa, jamiyat otadir! Katta ma'nodagi kurashlar, dolg'alar kishini tabiatning qo'ynidan olib kelib, jamiyat orasiga tashlaydi⁵”, - deydi. Shunga mos ravishda she'rlaridagi tabiat bilan birlik hissi va uning go'zalligidan tug'iluvchi dard egallaydi. Agar shoir ijodining ilk bosqichida ichki

⁴ A.Oripov. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik, t-4. – T., 2001. – B.76.

⁵ A.Oripov. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik, t-4. – T., 2001. – B.84.

olami bilan tashqi olam (tabiat) orasidagi o'xshashliklarga tayangan bo'lsa, hayotga chuqurroq kirib borgani sari o'xshashliklar doirasi ham kengayib boradi. Zero, borliqda mohiyatan bir-biriga o'xshash nuqtalar "o'tmish – hozir", "tabiat – jamiyat", "inson – nabotot", inson – hayvonot", "inson – hodisa" kabi juftliklarning hammasidan ham topilaveradi. Masalan, G'.G'ulom vafotining bir yilligi munosabati bilan yozilgan "Nutq" she'rida mana bunday misralar bor:

Bu asrdan mangulikka yorliq olmoqqa

Yetmas ekan faqatgina she'riy iste'dod

Ma'lumki, jamiyatda muayyan bir holatni tasdiqlash uchun tegishli tartibda hujjat – "yorliq olish" zarur. Albatta, buning uchun kishidan "yorliq" bilan tasdiqlanayotgan holatga muvofiqlik talab etiladi. Jamiyat hayotidagi ushbu tartib ko'chma ma'noda "G'afur G'ulom mangu yashaydi" degan fikrni ifodalaydi. Ikkinchi tomondan, shoir bu yorliqni shiddatli XX asrdan oldi, uning talablari esa ulkan, shoirlik istedodining o'zi yetarli emas. Demak, metafora bu yerda tavsiflanayotgan obyektning ahamiyatini to'laqonli ochib berish uchun xizmat qiladi. "Muallimlarga", "Yuzma-yuz", "O'zbekiston" kabi she'rlar tahlili orqali shoir qo'llagan metaforalarning yana bir manbasi jamiyat hayoti ekanligini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, A.Oripov she'riyatidagi metaforaga material beruvchi manbalar g'oyat keng va boyligini ko'rdik. Biz yuqorida shoir qo'llagan metaforalarning xom ashyo manbai sifatida ona tabiat, jamiyat va milliy adabiy an'analarnigina muxtasar ko'rib chiqdik. Holbuki, shoir metaforalari yana milliy turmush tarzi, xalqning urf-odatlar, ishonch-e'tiqodlari, folklor, jahon adabiyoti an'analari kabi manbalardan ham oziqlanadi. Metafora (umuman obraz) yaratish uchun murojaat etayotgan manbalar nihoyatda boyligi shoir ijodida metaforik (obrazli) tafakkur teranligi, metaforalarning rang-barangligini ta'minlovchi omildir.

Adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlarda, xususan, maxsus lug'at va o'quv adabiyotlarida metaforalar tasnifiga yetarli e'tibor berilmaydi. Aksar metafora-jonlantirish va metafora-predmetlashtirish turlariga to'xtalib, bundan boshqacha tasniflar ham bo'lishi mumkin, lekin buning u qadar muhim emasligi ta'kidlab

qo'yiladi. Haqiqatda esa, metaforaning turlari bir-biridan ta'sir kuchi, voqelanish mexanizmi, funksiyasi kabi jihatlardan sezilarli farqlanadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda A.Oripov she'rlari misolida shu narsani ochib berishga harakat qildik.

Metafora-jonlantirish jonsiz narsa-hodisalarga insonga xos xususiyatlarni, metafora-predmetlashtirish esa tashqi olamdagi narsa-hodisalarga xos xususiyatlar ichki olam xodisalariga - ma'naviy–ruhiy tushunchalarga ko'chirilishini nazarda tutadi. Masalan, “Yana keldi erkatoy ko'klam” deyilganda bahorga munosabati yaqqol ifodalanadiki, bu poetik metaforaga xos ekspressivlikdir. Yoki qish bo'yi bahorni intiq kutgan kapalakning vasli shirinroq” satridagi ekspressivlik o'quvchini shoirga hamfikir etadi. Sabab ekspressivlikning o'zigina emas, topib original tarzda aytilgani hamdir. Chunki aslida “tund diyor” odamlar bilan ham muomalada bo'lamiz, ya'ni shu majburiyatdan xalos bo'lgan chog'dagi kayfiyat hammaga tanish. Shoir shu kayfiyat bilan qishdan bahorga chiqish chog'idagi kayfiyat orasida o'xshashlikni kashf etadi, ya'ni qiyosning o'zi original va shu narsa ifodani ta'sirli etadi.

Metafora-predmetlashtirish metafora-jonlantirishga nisbatan siyrak uchraydi, lekin badiiy samarasi undan kam emas. A.Oripov Darband daryosiga xitoban “Yurakda sen ijod hissini chertding” deydi. Bunda “his” ni “tor”ga yashirin o'xshatish bor: his predmet sifatini oladi. Xuddi shu qiyos misraning metaforik ma'nosini yuzaga chiqaradi: tor chertildi – yurak kuylay boshladi, ya'ni daryo qalbga ilhom bag'ishladi. Metaforaning bu turi badiiy obrazning muhim sharti bo'lgan konkret-hissiy ifodani ta'minlaydi. Negaki, inson ichki olamiga taalluqli tushunchalar, predmetlashtirish ularni konkret-hissiy idrok qilishga yordam beradi.

Kuzatishlarimiz A.Oripov she'riyatida qiyos obyektlari va ma'no ko'chish yo'nalishiga ko'ra metaforaning to'rt turi qo'llanganini ko'rsatadi:

- 1) insonga xos xususiyatlarni jonsiz narsa-hodisalarga ko'chirish;
- 2) predmet xususiyatini inson ruhiy olami bilan bog'liq yoki tashqi olamdagi abstrakt tushunchalarga ko'chirish;
- 3) ma'noni jonli narsadan jonli narsaga ko'chirish;

4) jonsiz predmetdan jonsiz predmetga ko'chirish asosida yuzaga keluvchi metaforalar.

Metaforalarning mazkur xillari qo'llanish faolligiga ko'ra bir xil emas, ularning faolligi ro'yxatdagi tartibga mos keladi. Metafora- jonlantirish – eng faoli, metafora-predmetlashtirish unga qaraganda sustroq. Bu ichki va tashqi olamni bir-biriga qiyosan idrok etishga intilish A.Oripov badiiy tafakkurida ustuvorligi bilan izohlanib, ko'p jihatdan shoir shaxsi shakllangan muhit bilan bog'liqdir. Metaforalarning ifodalanishi, turli til birliklari (ot, fe'l, sifat, ibora) bilan ifodalagandagi o'ziga xosliklar ma'lum. Shuningdek, metaforaning kontekst bilan bog'liq holda voqe bo'lishi, bu jarayon bosqichlari va ruhiy mexanizmi; o'xshatish va zidlash orqali hosil bo'luvchi metafora kabi masalalar A.Oripov she'rlarida ko'p uchraydi.

A.Oripov she'riyatida metafora turli darajalarda: poetik ko'chim, poetik obraz va butun boshli she'r doirasida namoyon bo'ladi. Bunday darajalanishda quyidan yuqoriga tomon integrativ aloqa mavjud. Ya'ni metafora-ko'chimning obraz darajasidagi metafora uchun, ikkalasining esa metafora-she'r uchun material, "g'ishtcha" bo'lib xizmat qilishi taqozo etiladi. Obraz darajasidagi metaforani "Saraton" she'ri misolida ko'rib chiqish mumkin:

*Ko'rdim-ku manglaying ter bilan qotib,
Berahm otashga berganingda tob.
Ko'rdim-ku tepangda o'zin yo'qotib,
Hayratdan lol qotib qolganin oftob.*

Bu yerda "berahm otash", "o'zni yo'qotmoq" va "lol qotmoq" metafora-ko'chimlar mavjud. Metaforalarni o'zaro va ularni o'rab turgan boshqa so'zlar qurshovida olib qarasak, obraz yaraladi. Bu obrazning esa ikkita tayanchi bor: biri saraton otashiga qaramay peshona teri to'kib ishlayotgan dehqon bo'lsa, ikkinchisi – uning azmu shijoatiga lol holda shundoq tepasida qotib turgan quyosh. Ya'ni ko'chim-metaforalar ashyo sifatida bir butunni – obrazni yaratishga xizmat qilmoqda. Ammo obrazni yaratishning o'zi pirovard maqsad emas, u ifoda vositasi sifatida qoraladi. Ayni shu obraz shoirning Vatan mavzusidagi she'rlarga xos

g'oyaviy-tematik leytmotiv – xalqni ulug'lashga xizmat qilishi ko'ramiz. Shuningdek, she'r kompozitsiyasida ayni shu band markaziy o'rin tutishi (13 bandli she'rning 7-bandi) va fikr-his rivojidadagi kulminatsion nuqta ekani, ayni tarzdag qurilish saratonning bir kuni (ya'ni tabiiy bir kun)ga monandligi, bular hammasi shakl va mazmunning o'zaro uyg'unligini ta'minlab, she'rni chin san'at asariga aylantirishi ochib berilgan.

“Xotirot” she'rining boshlanishidagi real peyzaj detallari (o't bosgan so'qmoq, bitib ketgan yozuv, buzulib ketgan ko'prik) oxiriga borib metaforik mazmun kasb etadi. Natijada metafora she'r kompozitsiyasini belgilagan asosiy prinsip bo'lib qoladi. Ayni shu tartibda qurilgani uchun lirik holatning hayotiy chiqishiga erishiladi, lirik qahramon o'y-hislari o'quvchiga ko'chadi, o'quvchi she'rda tasvirlangan holatni ko'nglida yashaydi. Hayotiylik samimiyatni keltirib chiqaradi, samimiyat tufayli hayotda hamma ham tushishi mumkin holatda yuzaga kelgan tuyg'ularning nechog'li go'zalligi his etiladi. Bu usulning turli ko'rinishlari A.Oripov she'rlarida samarali qo'llangan. Biz tahlil qilgan she'rlar uchun umumiy jihat shuki, metafora poetik temaning o'zagi sifatida ularning kompozitsion qurilishini belgilagan. Biroq ularning kompozitsion tarxi bir xil emas. Masalan, “Saron”da metaforik obraz – kompozitsion (va tematik) markaz, “Xotirot”da esa lirik mushohadaga turtki bergan real peyzaj detallari yakunda metaforiklik kasb etadi. “Shoirilar hayoti”da konkret holat tavsiflanadi va undan olingan taassurot yakunda metaforik xulosaga do'nadi. “Jannat” she'rida metafora voqea orqali sharhlanadi, yakuniy misralar dastlabki ikki misra bilan semantik jihatdan bog'lanadi va natijada she'rning metaforik ma'nosi reallashadi. Tahlillarimiz A.Oripov uslubiga xos she'rga metaforani yoyish usuli asosida tartib berish usulini ajratib ko'rsatishga imkon berdi. Ushbu usul ikki yo'nalishda amalga oshadi: metaforani sharhlash (“Jannat”) va metaforaning yaralish jarayonini tasvirlash (“Xotirot”, “Shoirilar hayoti”).

She'rni kompozitsion jihatdan ikki qismga ajratish va bu qismlarni o'zaro turlicha munosabatlar (o'xshashlik, zidlash) asosida mazmunan bog'lagan holda metaforik ma'noni yuzaga chiqarish A.Oripov uslubining kompozitsiya darajasida

namoyon bo'luvchi xususiyatlaridandir. Bu shoirning “Etna vulqoni”, “Me'mor umr bo'yi...”, “Xarobazor”, “Oh urib har yonda izg'iydi shamol”, “Erkinlik” she'rlarida mavjud. Shuningdek A.Oripovning ikki bandli she'rlaridan ayrimlarida birinchi band ifodalanayotgan fikrni boshqa matnlar bilan bog'lovchi ko'prik vazifasini o'tashi, metaforaning ma'nosi avvaldan boshqa matn bilan bog'liq holda yuzaga chiqishi “Qaldirg'och”, “Eski quduq”, “Gulliver” kabi she'rlari misolida ko'rish mumkin. Bundan tashqari shoirning “Burgut qismati”, “Eski choriq” she'rlari metaforaning qay tarzda yoyilishi jihatidan farqlanishi, birinchisining “o'rama kompozitsiya” tarxida (metafora obyekt – litik mushohada – metafora obyekt), ikkinchisining, murojaat shakllidaligi bois takror asosiga qurilgani, har ikkala holda ham kompozitsiyaning ko'zlangan badiiy niyatga mosligi aniqlandi. Xullas, ushbu tahlillar A.Oripov she'riyatida metaforiklikning ustuvorligi, bu narsa shoir uslubining o'ziga xos xususiyati sifatida asarlarining barcha sathlarida, xususan, kompozitsiya sathida ham namoyon bo'lishini ko'rsatdi.

Shoir “Dorboz” she'rini “timsol she'r”, “Tilla baliqcha”ni esa “Ummon yuzini ko'rmay yashayotgan erksiz baliq to'g'risidagi bu she'r she'r bir timsol” deydi. Agar “timsol” so'zi “obraz”ning sinonimi sifatida ishlatilayotganini e'tiborga olsak, shoir to'la haq. Ikkala she'rda ham yaxlit obraz yaratilgan va shu obraz orqali boshqa narsaning mohiyatini ochishga harakat qilingan – ikkisida ham badiiy tafakkur metafora prinsipi asosida kechadi. Lekin ularda metaforik ma'noning yuzaga chiqishi bir-biridan farqlanadi. Ma'noning yuzaga chiqishi jihatidan, odatda, timsol she'rning uchta ko'rinishi ajratiladi: she'r-o'xshatish, she'r-allegoriya va she'r-metafora.

She'r-o'xshatish bilan she'r-metafora farqi o'xshatish bilan metafora-ko'chim kabi: she'r-o'xshatishda o'xshatilgan va o'xshagan obyektlar mavjud bo'lishi bilan birga, o'xshashlik borligi ifoda etiladi. “Ko'zgu parchalari”, “Me'mor umr bo'yi...” she'rlaridagi o'xshatish vositasi ifodalangan (“shoir yuragi... chil-chil singan ko'zguga o'xshash”; “me'mor... go'zal imorat quradi”, “Xuddi shu singari, qurgaymiz biz ham// Umr deb atalmish go'zal binoni”) bo'lib,

metaforik ma'noning yuzaga chiqishida kompozitsiya hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. She'r-metafora va she'r-allegoriyada esa bittagina obyekt tasvirlanadi, ya'ni bitta obraz yaratiladi. A.Oripovning timsol she'r degani shu ikkisiga, ayniqsa, she'r-metaforaga ko'proq mosdir. Chunki ularda lirik mushohada predmeti matnda ochiq aks etmaydi, u implitsit holdagina mavjud. Aksincha, she'r-o'xshatishda mushohada mushohada predmeti ham, u haqdagi hukm (predikat) ham matnda aks etadi. Masalan, "Ko'zgu parchalari" she'rida lirik mushohada predmeti – voqelikning shoir ijodida o'ziga xos inikos etishi. U haqdagi badiiy hukm (predikat) voqelikning ko'zgu parchalarida akslanishiga qiyosan aytilgan: shoir qalbi ham ko'zgu parchalarida akslanishiga qiyosan aytilgan: shoir qalbi ham ko'zgu kabi chil-chil bo'lgan, shuning uchun voqelikni yaxlit aks ettira olmaydi. "Tilla baliqcha" da esa bu narsa matnda aks etmaydi. Matnda predikatning o'zi, ya'ni mushohada predmeti haqidagina hukm mavjud, xolos. She'rning nima haqda ekanligini, ya'ni predmetini o'quvchining o'zi anglab olmog'i kerak. Shoir ko'zda tutgan ma'noni anglash uchun o'quvchi o'sha masalani she'rning lirik mushohada predmetiga aylantirgan sharoitni his qila olishi zarur. Aks holda, shoir ko'zda tutgan ma'no reallashmaydi, ayni choqda, tasvirlangan holat obraz sifatida o'zga ma'nolarni yuzaga chiqarishga asos bo'laveradi. Demak, "Tilla baliqcha"ning turli talqinlarga uchrashi sababini, avvalo, shu joydan qidirish va buni tabiiy hol deb qabul qilish to'g'ri bo'ladi.

II.BOB. A.Oripov she'riyatida poetik tasvir va peyzaj

Peyzaj lirik asarda yanayam muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tabiat manzaralari inson qalbi kayfiyatlari, kechinmalarini ifodalash uchun eng qulay assotsiativ (o'xshash) unsurdir. Ba'zan san'atkor qobig'iga o'ralib yashayotgan odam bilan sassiq ko'lmakdagi tilla baliqcha yoxud o'zida cheksiz kuch-qudrat sezgani holda maqsaddan mosuvo yashayotgan odam bilan bemaqsad uchib yurgan burgut orasida (A.Oripov), yoxud qatag'on sharoitida ijod qilayotgan shoir bilan vahshiy qoyalar orasida quyoshga oppoq gul uzatgancha nafis chayqalayotgan na'matak (Oybek) orasida o'xshashliklar topadi, birining mohiyatini ikkinchisi orqali ochib beradi.

Misol tariqasida lirik qahramonning muayyan bir holati, kayfiyatigina qalamga olingan yana bir she'rni olib ko'raylik:

*Bahor kunlarida kuzning havosi,
Tanimni junjitar oqshomgi shamol.
Nega muncha g'amgin nayning navosi,
Nega qalbim to'la o'kinch va malol?
Barglar orasiga tinmasdan sira,
Oshno yulduzlardan to'kiladi nur.
Bilmayman qiynaydi qaysi xotira,
Titroq yulduz kabi muzlagan shuur.
Mag'lub bahodurning nayzasi misol,
Ma'yus egiladi terak uchlari,
Barglar soyasida o'ynaydi behol
Uyqudagi qizning bedor tushlari.
Atrofimda yotar g'arib bir viqor,
Bilmam, nega uchdi qalbim safosi.
Nima qilardim, na ilojom bor,
Bahor kunlarida kuzning havosi.*

Ko'rib turganimizdek, she'rda tabiat manzarasi tasvirlanadi va shu asosda mahzunlik kayfiyati ifodalanadi. Biroq, "bahor kunlarida kuz nafasining esish"

idan kelgan mahzunlik – obraz, mana shu holatning yuzaga kelish sabablari o'zgacha bo'lishi ehtimoldan yiroq emas. Mazkur she'r 1967 yilda yaratilgan edi. Nechun endi A.Oripov bahor kunlaridagi kuz havosi haqida gapiradi? Gap shundaki, she'r yozilgan payt 50-yillar oxirida jamiyat hayotida kuzatilgan uyg'onish, nisbiy erkinlikning 60-yillar o'rtalaridan qaytadan bukila boshlagan davriga to'g'ri keladi. A.Oripov jamiyatning bir a'zosi sifatida, erkka tashna ijodkor sifatida bu holdan iztirob chekadi, azoblanadi. Xassos shoir o'zini qiynagan DARD suratini tabiat manzarasida ko'radi, "bahor kunlarida kuz havosi"dan kelgan iztirobini, alamu o'kinchini ifodalaydi. Jamiyatning ko'zi ochiq a'zolarini iztirobga solgan bu ijtimoiy dard shoirning shaxsiy dardiga aylangan, dardning shaxsiylanish darajasi shunchalarki, biz she'rni "ko'ngil she'riyati" deyishga-da, uni "sof san'at" namunasi sifatida baholashga-da moyilmiz.

Yana bir misol: Cho'lpon bir she'rida qarg'a obraziga kuchli siyosiy bosim yuklagan holda, xorijiy mustamlakachilarga qarshi o'z isyonini bildiradi:

*Qarg'alar bog'larga qag'lashib qoldilar,
Bilmadim, kimlarning qismati uzilur?
Yong'oqqa yopishib bir changal soldilar,
Bilmadim, kimlarning umidi yo'q bo'lur?
Ey, sovuq ellardan muz kiyib kelganlar,
U qo'pol tushingiz qorlarda yo'q bo'lsun!
Ey, menim bog'imdan mevamni terganlar,
U qora boshingiz yerlarga ko'milsun!*

Yoki Oybekning mashhur "Na'matak" she'rini olaylik. Undagi tabiat manzarasini obraz deb olsak, tabiiyki, uning birinchi ma'nosi tabiat manzarasining o'zi. Holbuki, shoir o'z vaqtida shu manzarada assotsiativ ravishda istibdod tuzumi sharoitidagi ijodkor taqdirini ko'rgan va shu ma'noni obrazda ifodalagan. Ayni paytda, mazkur obrazning ma'no ko'lami shularning o'zi bilangina cheklanmaydi: o'quvchi o'z hayotiy tajribasi, she'rni o'qish paytidagi ruhiy holati bilan bog'liq ravishda bu obrazda tamomila boshqa mazmunni, o'z mazmunini ham topishi mumkin bo'ladi.

Tabiat shu tariqa lirik asarda yuksak darajadagi assotsiativlikni yuzaga keltiradi.

Tabiat tasviri, tabiat unsurlarining kuchli ramziy xarakter kasb etishini Rauf Parfi she'riyatida ham takror-takror uchratish mumkin. U bir she'rida zangori osmonning uzoq chetlarida kezinayotgan bulut obraziga murojaat qiladi. Ammo bulut shunchaki aytilsa, uning poetik ko'chimga aloqasi bo'lmasligi mumkin. Uni poetik obrazga aylantirish uchun shoir bulut so'zi oldidan "yiqilgan" sifat-doshini muhim belgi sifatida keltiradi. Darhaqiqat, osmonning bir chetida ayro holda turib qolgan bulutga nisbatan "yiqilgan" so'zi nihoyatda mos keladi. Bu narsa badiiy ko'chimga asos bo'lgan narsaning tashqi alomatini tashkil etadi. Ko'chimli obrazning hayotiylikni oshirish maqsadida shoir unga ikkinchi belgi-xususiyatni qo'shadi. Bu uning yig'lashidir. Haqiqatan ham osmonning bir chetida "yiqilgan" bulut o'zining g'aribligidan yig'lashi tabiiy. Ushbu holat bulutning tabiiy holati hamda vazifasini to'la ifodalaydi:

*Moviy osmon etaklarida,
Uxlab yotar yiqilgan bulut.
Tanholikda ertaklaridan,
Ayrilmish ul, bag'rida sukut.
Baxtli edi kezib falakda,
Axir to'yib-to'yib yig'lardi.
Ruhi bo'm-bo'sh, bo'shliq yurakda,
Oh, yiqilgan bulut uxlardi...*

Ko'rinadiki, shoir "yiqilgan bulut" obrazi orqali hayotning asosi – harakat ekanligini ta'kidlayapti. Bu obrazdan asosiy muddao esa ruhdagi yiqilgan bulutni ifoda etish. Shoir karaxt ijtimoiy muhitni, insonni "to'yib-to'yib yig'lash" baxtidan maxrum qilgan siyosiy tuzumni, xalqning o'z "ertaklaridan ayrilgan", jonsizlikka maxkum etilgan qudratli, ammo hozircha "bo'm-bo'sh" ruhini, buni anglagan shaxsning "bo'shliq yuragi"ni juda o'rinli topilgan obraz vositasida mahorat bilan ochib bera olgan.

Peyzaj lirik asarda shunchalik katta o'rin egalladiki, lirikaning mavzuviiy tasnifi qatorida “peyzaj lirikasi” degan tushuncha ham paydo bo'lgan. Peyzaj lirikasiga **“lirik turga mansub janrlardan biri: tabiat manzaralari va yil fasllarining turli ko'rinishlarini qahramonning lirik kechinmalari orqali aks ettiruvchi she'r”** deb ta'rif beriladi.

Bundan tashqari, shunday san'atkorlar borki, ular tabiatni olamni idrok etishning asosiy vositasi deb biladilar. Ularning asarlarida tabiat tasviri birinchi planga chiqadi, peyzaj – san'atkorning olamni idrok etish va badiiy qayta gavdalandirishning asosiy usuli bo'lib qoladi. Mashhur rus rassomi Isaak Levitan, rus yozuvchisi Mixail Prishvin, Konstantin Paustovskiylar haqida shunday deyish mumkin.

Peyzaj – tabiat tasviri badiiy asarda juda katta g'oyaviy-badiiy vazifani bajaradiki, yuqoridagi keltirilgan fikrlar mana shu xulosani tasdiqlaydi.

Har qanday shoirning shoirliği falsafiy, ijtimoiy fikrlar platformasiga chiqishdan oldin, fasllarning ko'ngilni orziqtiruvchi ranglarini, yeru osmon oralig'idagi insonga hamisha ham tushunarli bo'lavermasada, zotan yaqin bo'lgan ohanglarni, zimiston tunlar bag'rida sirqirab yotgan go'shalrida mavjud bo'lgan - raqobatiga inson qo'li bilan yaratilgan har ne san'atda dosh bera olmaydigan jilvalarni ko'rishdan boshlanadi. Abdulla Oripov O'zbekiston tabiatining takrorlanmas go'zalliklari musavviri bo'ldi. G'azab tangrisiday ayirgan yashil to'lqinli Darband daryosi, ungurlarda sakragan ohu, billuriy havoda uchib yurgan mezonalar, ildiz yorgan ko'zagullar, kuzning rutubatli oqshonida sekingina oh chekayotgan bog'lar, mag'lub bahodirning nayzasiday ma'yus egilgan terak uchlari, cho'ntakdan to'kilgan tangalar singari supaning ustida o'ynayotgan saraton shu'lalari... o'zbek zaminining bu manzaralari shoir qalamining sehrli kuchi kuchi bilan bir to'da hayratangiz ohulariday tasavvurimiz kengliklariga chopib kiradi.

Tabiat bilan til topishishi insonni ma'naviy qashshoqlikdan xalos etadi, degan fikr bor. Haqiqatan ham, tabiatga yaqin, tabiat go'zalliklarini sevgan kishi qalbi ezgulik nuri bilan charog'on bo'ladi. Tabiat orqali olam sirlari ko'z o'ngimizda keng gavdalanadi. Haqiqiy iste'dod egalarining asarlari tabiat va inson

orasidagi bir ko'prik vazifasini bajaradi, desak xato bo'lmaydi. A.Oripov bir she'rida shunday deb yozadi:

*Faqat tabiat bor – ilohiy makon,
Faqat o'shanga sen bepisand boqma.
Loaqal uni sen tanigin, Inson,
Yolg'iz boshpanangni o't qo'yib yoqma.*

Haqiqatan ham, tabiat – ilohiy maskan, unga bepisand qarash, uni sevmaslik inson boshini ko'p balolarga duchor etadi. Inson ona tabiatdan yiroqlashsa, o'zini bilishdan uzoqlashadi va qalbi qashshoqlashadi. Demak, ilohiy boshpanamiz tabiatdagi har bir o'zgarish yoki hodisa inson taqdiri bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun hayotdagi u yoki bu o'zgarishlar quvonch yoki qayg'u, alam, yo'qolishlar tabiat fasllariga, tabiat manzaralari va predmetlariga qiyosan ochib beriladi.

Insonning tabiatga yaqinlashtiradigan, uning ko'nglini ona tabiat go'zalliklariga oshno aylaydigan fasl - bahor fasli hisoblanadi. Shuning uchun qadim davrlardan boshlab olamni yoshartiradigan bu fasl shoirlarning ilhom manbai bo'lib kelgan.

Bahor va she'r – egizak tushunchalardir. Bahorni go'zalliklardan zavqlanish mavsumi deyish mumkin. Bunda tabiatning yashil ranglarga bo'yanishidan boshlab, suvlarning sharqiroq ovozi, qushlarning qiy-chuwigacha barchasi sirli va jozibali. Bu sir va joziba insonni doimo o'ziga maftun etadi. Ana shunda uyg'onish shavqini yangidan his qilib, yana ilgariga intiladi. Bahor shu tarzda uning hayotiy intilishlarini quvvatlab, yashashga, sevishga, yaratishga ishonchini mustahkamlaydi.

Bahor va ko'klam manzaralarini odam o'z qalbida his etganda, ilohiy va hayotiy quvvat oqib kiradi. Mana shu sabablarga ko'ra, Sharq shoirlari bahor faslini yangi orzu, umid, shodlik, ezgulik, bunyodkorlik fasli sifatida madh etib kelganlar. Masalan, Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" dostonining alohida bo'limida bahorni madh etib shunday yozadi:

*Esa keldi Sharqning bahorning yeli,
Olamga sochildi jannatning yo'li,*

*Bu bo'z iforlandi qorlarketib,
Bezandi ilam chiroy ko'rsatib.
G'olib kelgan qishdan bahor chiroyi,
Ko'rildi yangidan bahorning yoyi.*

Bahorning Yusuf Xos Hojibdan boshlangan mana shunday tasviri, unda hayotning yangilanishini ifoda etish an'anasi keyingi davr she'rlarida davom ettirildi. Masalan, Navoiyning "Uyg'otur subhi bahor elni fig'on birla saxob", "Pili gavharashdurur har yon sahobi pilrang", "gulbin uzra subhidam har sori gul bargi tari"; Boburning "Bahor faslidurur may havosi boshimda", "Bahor ayyomidurdagi yigitlikning ovonidur", "Xotirni bahor faslida gasht oladur"; Munisning "Chamanlar sayriga kelki, fasli navbahor o'lmish", Ogahiyning "Qilib oyini mehr og'oz Navro'z", Furqatning "Fasli navbahor o'lmish", Muqimiyning "Fasli navbahor o'ldi" kabi she'rlarida bahor faslining go'zal manzaralari chiziladi. Navoiy va Bobur bahorni inson umrining o'tkinchiligi bilan qarama-qarshi qo'ysalar, keyingi davr shoirlari ko'klamning go'zal ko'rinishi, tabiatdagi uyg'onishni ijtimoiy hayotdagi notenglik, adolatsizlik, zulmga zidlantirdilar.

XX asrning dilbar shoiri Cho'lpon ham o'z she'rlaridan birini "Ko'klam qayg'usi" deb nomlaydi. Ko'klam bilan qayg'u, aslida bir-biriga muvofiq kelmaydigan tushunchalardir. Ammo shoir ko'kat, maysa yuzlarida "ayriliq tinglab, chidab bo'lmas malol"ni ko'radi. Ko'klam chog'i bo'lsa ham negadir "sayroqi bulbul sayramas"ligiga kishini ishontiradi. Lirik qahramonning yuzlaridagi "aldanish belgisini ko'rib, uning ham ko'zlarida "bir yig'i" paydo bo'ladi. Shoir aldoqchi ko'klam timsolida asrboshi voqealari orqali o'zining aldangan tuyg'ularini ifoda etadi.

Abdulla Oripov she'riyatida bahor fasli tasvirlari inson ko'nglida kechgan turli-tuman his-tuyg'ulari ifodalovchi she'rlar qatori alohida mavqe tutadi deyish mumkin. Shoirning "Sen bahorni sog'inmadingmi?", "Bahor kunlarida kuzning havosi", "Bahor kunlarida", "Bahor", "Bahor xosiyati", she'rlari shu savolga javob beradi. Ya'ni: Bahor – ishq fasli, oshiqlar bahorda "zangori kenglikka boqib", "Qo'shiqlar aytadi bag'rini yoqib".

Bahorda tabarruk chollarning chakkasida ham gul ko'rasiz. Demak, "momolarning uyida" ham ko'nglida ham bahor tashrif buyuradi.

*Azizim g'unchaga nazar sol bir on,
Bag'rida hozircha turfa hol pinhon.
Ranglar yashar unda balki pushti, oq.
Ajab, tikoni ham hozircha yumshoq
Tong chog'i shabboda ko'taradi bosh,
Oh nechog' latifu, nechog'li yuvvosh.*

Xullas, "bahor norasida go'dakday shirin", hamda uning "qo'ynida ezgulik, armon yashirin" bo'lganligi uchun ham, ushbu fasl azal-azaldan shoirlarning diqqatini o'ziga jalb qilib keladi.

Bahor Abdulla Oripov nazarida ham eng xosiyatli fasl hisoblanadi. U bir she'rida bahorgagina xos bo'lgan xususiyat va xosiyatni falsafiy tarzda shunday ta'riflaydi:

*Qarangki, bahorning vazifasi yo'q,
Biror mahkamadan maosh olmas u.
Unga kor qiladi na araz, na do'q,
Safarga chiqdimi, kelmay qolmas u.*

Ammo, uning safari boshqa yil fasllarining tashrifidan butunlay farq qiladi.

U:

*Yuksak fasllarni burkar chechakka,
Gado kulbasini bezar sarosar!
Ezgulik bobida faqat u yakka,
Faqat u barchaga teng va barobar.*

Shuning uchun ham hayotga, go'zallikka mehri saqlangan har bir inson bahorni olqishlamog'i, unga ko'ngil eshiklarini ochmog'i shartdir:

*Ko'ngil darichasin ochib qo'ying lang,
G'ussali dilda ham kuladi bahor.
Umidvor insonlar, uni ochib pang,
Faqat xosiyatli bo'ladi bahor.*

Abdulla Oripovning bahor haqidagi har bir she'ri ma'no jihatdan ham, tuyg'u, ohang va ifoda nuqtai nazaridan ham o'ziga xos xususiyat va yangiliklarga ega. Shuning uchun ularning hech qaysisi boshqa shoirlarning bahorga bag'ishlangan hech bir she'riga o'xshamaydi! Shu ma'noda shoirning "Bahor" manzumasi alohida e'tiborga molikdir.

Taniqli munaqqid Umarali Normatov "Bahor" she'rining hayotiy, falsafiy va ruhiy kuch-quvvatini alohida ta'kidlab shunday degan edi: "bu she'rni ma'lum ma'noda marsiya deb atash mumkin. Ammo u o'ziga xos nurli, tantanavor marsiya. She'r, bir jihatdan, kishini qayg'uga soladi, ayni vaqtda uning ko'nglida umidbaxsh bir kayfiyat uyg'otadi". Darhaqiqat, ushbu she'rda shodlik va qayg'u, visol va hijron, sevgi va hasrat, g'am va umid o'zaro uyg'unlashib ketgan. She'rning umumiy ohangi esa, ana shu hayotiy murakkablik va uyg'unlikdan tug'ilgan.

Xullas Abdulla Oripovning qaysi bir she'riga murojaat etmaylik, tabiat bilan bog'liq poetik ko'chimlarga duch kelamiz. Bu esa ijodkorning o'ziga xos mahorat uslubini ko'rsatadi.

II.1. Ramz – simvol shoir she'riyatining asosiy pafosi

Simvol (yunoncha symvolon – shartli belgi) – ramz – tasvir obyektining mohiyatini ma'lum bir nuqtayi nazardan shartli ifodalovchi ramziy so'z yoki narsa. Simvollar zamirida hamisha yashirin o'xshatish yotadi.

Simvollar realistik adabiyotda, shu jumladan hozirgi adabiyotimizda ham keng qo'llaniladi. Masalan, shoir Cho'lponning "Binafsha" she'ridagi Binafsha, Abdulla Oripovning "Tilla baliqcha" she'ridagi Tilla baliqcha, Omon Matjonning "Yonayotgan daraxt" she'ridagi Yonayotgan daraxt kabilar sof simvolik obrazlardir. Shuningdek, Haqqush – "Haqqush qichg'irig'i" asarining bosh qahramoni - simvolik obraz. Mumtoz adabiyotimizda keng qo'llanilgan gul, bulbul, tun, kun, oftob kabi juda ko'plab poetik obrazlar ham simvolika samarasidir. Masalan, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod – muhabbat, mehnat va qahramonlik simvoli, Shopur – do'stlik va sadoqat ramzi, Shirin – muhabbat va go'zallik timsoli, Xisrav – bosqinchilik va yovuzlik ramzi bo'lib qolgan; "Saddi Iskandariy" dostonidagi Iskandar Zulqarnayn adolatparvarlik va ma'rifatparvarlik ramzi. Cho'lponning "Po'rtana" she'ridagi Po'rtana, Suv qizi, Shamol, To'lqin kabi tabiat hodisalari simvolik obrazlar sifatida talqin qilingan. To'g'ri, shunchaki qaraganda, bu she'rda dengizda yuz beradigan tabiiy hodisa aks ettirilayotganga o'xshaydi – aslida esa shoir dengiz hodisalariga katta ma'no baxsh etgan. Mana she'rning oxiridagi misralar ham shundan guvohlik beradi:

*Bu mening keng ko'nglim g'avg'oni, janjaln,
To'palon, qo'zg'alish, chuvalash, isyonni, to'fonni
Suyadir; shuning-chun dunyoni, jahonni, tog' va tosh
Hammasin ag'darmoq istaydir, yonadir, kuyadir...
O'ynat ey, po'rtana, to'xtatma, quvvat ol,
Chog' kelgach, erinib yotma, uxlama, bo'lmasin yo'qlama.
Ko'p ezgan dushmandan, past jondan
O'chni ol, o'chni ol, o'ch ol...*

Ramz (arabcha – imo ishorat) – tasvir obyektining mohiyatini ma'lum bir nuqtai nazardan shartli ifodalovchi so'z yohud predmet. Ramzlar xalqaro

atamashunoslikda *simvol* deb yuritiladi. Ramzlar o'z tabiatiga ko'ra turli hil bo'ladi.

Predmetlar, hayvonlar, qushlar, parrandalar, mashhur voqealar, harakat va predmetlarning belgilari va boshqalar simvolistikada katta o'rin tutadi. Masalan, bayroq va gerb – davlat ramzi, non-tuz – mehmonnavozlik ramzi, do'stlik belgisi, tun – baxtsizlik alomati, tong – yoshlik va quvnoqlik ramzi, kabutar – tinchlik ramzi...

Simvollar zaminida hamisha yashirin o'xshatish yotadi. Ular turmush voqea-hodisalari bilan chambarchas bog'liq. Simvollar har doim san'atda katta ahamiyat kasb etib kelgan. Chunonchi, simvollar san'atning negizi bo'lgan badiiy obrazlar tabiati bilan uzviy bog'liq, har qanday obrazda shartlilik va simvolika bo'ladi. Chunki obraz tabiatan hayotiy hodisalarni individual shakl orqali umumlashtirar ekan, bu jarayon shartlilik va simvolikasiz bo'lmaydi. Badiiy adabiyotda tashbih, istiora, sifatlash, parallellik ma'lum darajada simvolik xislatga egadir. Masallardagi jonlantirishlar, ertaklardagi allegorik xislatlar va, umuman, allegoriya – badiiy simvolikaning ko'rinishlaridir.

A.Oripovning "Jannatga yo'l" dramatik dostoni ham ramzlardan iborat. Dostondagi Yigit, Ona, Ota, Taroziyon, Yugurdak, Chol, Hur qiz, Farishta, Do'st va boshqalar sof simvolik obrazlardir. Dostonda zikr etilgan Jannat, Do'zax, Arosat ham ramziy ma'noda ishlatilgan. Dostonda tasvir etilgan voqealar ham shartli: voqealar narigi dunyoda yuz beradi, bosh qahramon – shoir Yigit Mahshar sahosiga Taroziyon bilan uchrashadi. Taroziyon marhumlarning savob-gunohlarini hisobga olib, birini jannatga, birini do'zaxga, birini do'zaxga, birini arosatga yo'llamoqda. Hatto yetti bor haj qilgan mo'ysafidni (otasini sansiraganligi uchun – gunohi uchun) do'zaxga yo'llaydi. Taroziyon shoir Yigitning ham gunohi-savoblarini hisoblaydi – jannatga kirishga ikki paysagina yetmaydi – uni arosatga yo'llaydi. Shoir hayotni bo'yab-bejab tasvirlaganlikda ayblanadi. Taroziyon shunday deydi:

*Ilohiy dil bergan edi senga xudoyim,
Quloq sol deb sho'rliklarning ohi-zoriga.*

*Sen-chi, samo shu 'lasini kuylading doim,
She'rlar bitding yulduzlarga, gulgu, ohuga.*

Yigit Arosat yalangligida yolg'iz kezar ekan, u dastlab go'rkov cholg'a, sal keyinroq marhum otasining arvofiga duch keladi – otasi bilan diydor ko'rishadi, jannati ota o'g'liga yetishmagan ikki paysa savobni bermoqchi bo'ladi, ammo o'g'il uni rad qiladi. Dostonning uchunchi ko'rinishida Yigit jannat qasrida onasi diydoriga musharraf bo'ladi; to'rtinchi ko'rinishida voqealar Do'zax darvozasi oldida yuz beradi: shoir yigit o'spirin bilan qariya janjaliga duch keladi, ig'vogar kimsa bilan to'qnashadi va, nihoyat, do'st bilan uchrashadi. Beshinchi ko'rinishda do'zax qopqasi oldida Do'st bilan Yigit bahsi beriladi. Ma'lum bo'lishicha, Yigit odamlarga ishonuvchanlik qilib xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa, Do'st aksincha odamlarga ishonchsizlik oqibatida gunohga qoladi. Nihoyat, Yigit shunday xulosaga keladi:

*Yanglishibmiz ikkimiz ham nozik narsada,
Chunki inson o'z nomi-la Hazrati inson.*

Do'st "Men yovuzlik qurboniman, qalbmida alam" deb hisoblasa, Yigit:

*Ne-ne zotlar gar o'zlari topsa ham to'zim
Odamzodga ko'rmaganlar yomonlik ravo.
Ezgulikning yo'li og'ir, serg'alva garchand,
Yuksaklarga ko'taradi sohibni biroq.*

Simvol nasrda ham, sahna asarlarida ham, ayniqsa bolalar adabiyotida tez-tez uchrab turadi. Ammo u she'riyatda favqulodda ahamiyat kasb etadi.

Abdulla Oripov she'rlarida tabiat tasviri hamisha ijtimoiy hayot manzaralari bilan baqamti keladi. Buning yorqin misoli "Qo'riqxonalar" she'ridir. Bu she'rda shoir hayotda kuzatiladigan ziddiyatli manzarani shunday aks ettiradi: inson qilayotgan ulug' ishlardan biri shuki, u dunyoda kamyob bo'lib qolayotgan o'simligu hayvonlarni asraydi, hatto atroflarini o'rab, qo'riqxonalar yasaydi. Biroq inson o'zining insoniy fazilatlarini qo'riqlay olmaydi. Shoir bong uradi, qo'riqlansa, deydi, avvalo sof insoniy fazilatlar.

Insof yo'qolmasin, o'rang mustahkam,

To uni yuzsizlik etmasin xarob.

Ezgulikni asrang, olamda u ham Tojdor turna kabi bo'lmasin kamyob.

Oqibatni asrang, oqibat go'yo Ayiqday qaydadir topmasin zavol.

Hayoni asarangiz, qo'ymasin hayo

Iymonni asrangiz, u doim tanho

Undadir mujassam inson matlabi.

Avlodlar axtarib yurmasinlar to

Uni allaqanday qor Odam kabi.

Shoir bongida ma'no katta. Hayot – doim ziddiyatlarga to'la. Unda ba'zan manfur, munofiqlar, xudbin va manfaatparastlar, olchoq ig'vogar tuhmatchilar shu darajada niqoblanadilarki, ularni boshqalardan ajratib olish qiyin bo'lib qoladi. Aslida ular shu holdan foydalanib yashaydilar. Yashaydilargina emas, balki boshqalardan ustun bo'lish uchun harakat qiladilar. Haqiqiy inson esa o'z fazilatlari – imonu oqibati, vijdoni or-nomuslariga ishonib beniqob yashaydi. Beniqobligi bilan ular ba'zan niqoblilar qo'lida jabrlanadilar. Shu boisdan inson, avvalo, o'zini o'sha niqoblilar dastidan qo'riqlashi kerak. Mana, "Qo'riqxon"dan kelib chiqadigan muhim ma'no. shoir g'oyatda hayotiy, g'oyatda zarur, g'oyatda yuksak mana shu ma'no-g'oyani ifodalashda tabiat ramzlariga murojaat qiladi. Mazkur she'r haqida adabiyotshunos olim I.To'lakov shunday deb yozadi: "Shoirning "Qo'riqxon" she'ri – ijodkorning jamiyat oldidagi mas'uliyati, badiiy ijod hamisha odamlardan, kishilik dunyosidan ona-tabiatdan ogoh bo'lib turishi, istiqbol, kelajak, baxt-saodat, yuksak ideallar uchun kurashi haqida bong urgan asar. Shoir inson va tabiat garmoniyasi, inson ongini belgilovchi muhim xususiyati haqida falsafiy umumlashma yaratib, o'sha yillar ijod olamiga namuna ko'rsatgan".

Abdulla Oripovning tabiat vositasida yaratgan chuqur mazmunli ramzlardan biri "Tilla baliqcha" she'rida o'z ifodasini she'rida o'z ifodasini topdi.

Tilla baliqcha obrazi adabiyotshunosligimizda katta bahsu munozaralarga sabab bo'ldi, uni goh ijobiy, goh salbiy obraz sifatida talqin qilishdi. Bunday bahsni birinchi bo'lib ustoz adabiyotshunos Matyoqub Qo'shjonov boshlab bergan

edilar. M.Qo'shjonov tilla baliqchani dunyoni keng ko'rishni istamaydigan biqiq, maxdud, xudbin kishilarning ramzi sifatida talqin qiladilar. Yashar Qosimov esa tilla baliqcha jamiyatning qurboni ekanligiga, bir paytning o'zida qurbonlikka ko'nikkan, erksizlikni erk deb tushungan obraz sifatida foje jihatlariga urg'u qildi. Undan tashqari she'rning ohirgi ikki misrasiga alohida urg'u qilinib, tilla baliqcha holatidan namoyon bo'lishi ta'kidlandi.

Ushbu talqinlarning har birida jon bor. Bu – she'rning haqiqiy badiiy asarligidan, haqiqiy badiiy asar turli jo'yali talqinlarga sabab bo'la olishi va dosh bera olishidan kelib chiqadi.

Suvon Meliev tilla baliqchaga boshqa bir tomondan yondashadi. Uningcha, tilla baliqcha – dastlabki – Odam Ota va Momo Havvo gunohi uchun jannatdan quvilgan gunohkor Odam timsoli. Odamzod tug'ilib ko'zini ochganda, aqlini taniganda “to'ntkarilgan osmon osti” (A.Oripovning “Savob” she'ridagi obraz), ya'ni dunyoni ko'radi. Koinot gulto'ji, Yaratganning yerdagi xalifasi bo'lgan inson doim ham o'zining kimligi, asl vazifasi va asl makonini bilmaydi. Son-sanoqsiz odam Oliy aqldan aql-farosat va qalb berilgani holda jonivorday yashab, bu foniyl dunyodan o'tib ketdilar. Turmushning mayda-chuydalari, tanning istaklari samoviy intilishlardan mahrum etilib, ruhning bepoyon va sirli olami ko'zi berkilgan buloq kabi yashirin qoladi, bunday bandalar yo'qlikka mahkum betayin zot kabi ravona bo'lishadi.

Buning ustiga, baliqcha oddiy emas, tilla, ya'ni unga katta imkoniyat, katta qobiliyat ato etilgan.

Dunyoda ko'rgani shu tor hovuzcha

Va mudroq tollarning achchiq xazoni.

“Tor hovuzcha” – ko'zga tashlanib turgan moddiy dunyo. “mudroq tollar” – shu hovuzchani to'sib, qo'riqlab turgan devor, ikki karra ikki to'rt qabilidagi sirsiz-sehrsiz, ma'naviyatsiz, ruhoniyyatsiz mayda aqidalar majmui. Tollardan to'qilgan sariq barglar boyagi bilimlarning chala-cho'lpa laxtaklari. Moddiyat tilla baliqcha sifat odamlar uchun eng oliy haqiqat. Xullas, zerikarli va yakrang dunyo, ya'ni “ko'lmak hovuz”.

Agar tilla baliqcha o'z imkoniyatlarini ishga solganda, u o'z asliyatiga – tillaliga munosib bo'lgan bo'lar edi. Hamma gap shundaki, “ko'lmak hovuzcha” bilan do'stlashgan, bir tan, bir jon bo'lib bo'lib ketgan. Eng dahshatlisi, ana shu ixtiyoriylikda, shu holatni qonuniy va tabiiy bilishda.

Lekin bu fojiali holatda inson o'zining ruhoniyligi zot ekanligini bilmasligini kuzatib, kuyunib – o'rtanayotgan odam bor. U muallif bo'lishi mumkin, kitobxon bo'lishi mumkin. Kim bo'lishidan qat'iy nazar, mana shu holatning fojia ekanligini, bunday holat yuksak ruhoniyligi Inson nomiga, sha'niga mutloqo nomunosib ekanligini anglagan fikr ko'zi ochiq, qalbi munavvar, o'zining kimligini, tarixiy majburiyatini anglagan inson. Abdulla Oripov birgina tilla baliqcha ramziy obrazi orqali, 8 misralari she'r orqali odamni ana shunday o'ylashga, fikrlashga majbur qiladi. Haqiqiy adabiyotning vazifasi ham aslida mana shu.

“Sog'inch” she'ri 12 misradan iborat. Shoir unda lirik qahramonning muayyan holati tasvirini tabiat manzarasidan boshlaydi. Ushbu 12 misrada butun insoniy drama joylangan. Bu drama – onasining yoniga qaytish orqali bolalikka qaytish, Vaqtni orqaga qaytarishga, umrini cho'zishga intilayotgan. Ammo u bunga ruhan, qalban erisha oladi. Poetik umumlashma qonuniyatga ko'ra she'rdagi har bir so'z ramziy ma'no kasb etadi hamda konkret shaxs – lirik qahramonning hissiy olamini badiiy qayta gavdalantirishda ishtirok etadi. Ramziy va aniq ma'nolar birikib, o'tgan onlar sog'inchi, ortga qaytib bo'lmaslik – yakka olam va butun odamzod fojiasi haqida hissiy, falsafiy taassurot uyg'otadi.

Parchagina bulut,

Cheksiz osmon,

Adir ortidagi yolg'izoyoq yo'l.

Bu ham manzara, ham ramz. Shoir bir necha so'z yordamida ko'pchilikka tanish manzarani yaqqol gavdalantirgan. Dastlab “bulut” va “osmon” so'zlarning yonma-yon turishiga va ularning sifatlashlariga e'tibor beraylik. Bulut – parchagina, osmon cheksiz. Uyiga oshiqayotgan, ona visolini sog'ingan lirik qahramon bulutga, osmonga beixtiyor qiyoslanadi. Shunda “parchagina” so'zi

odamning vaqt qarshisidagi ilojsizligini, cheksiz dunyoning beparvoligini ifoda etadi. “Adir” o’tab kelingan vaqt masofasi, “Yolg’izoyoq yo’l” – umrning tayin yakka-yakka kechishini majoziy ifoda etadi.

Jajjigina “Giyoh” she’rida ham g’oyat ta’sirchan bir manzara chizilgan.

*Ulug’vor bir qudrat bilan
Chayqaladi cho’ng dengiz.
Qancha og’ir xarsang toshlar
Tubda unga cho’kkan tiz.
Ammo mo’jaz, nozik giyoh,
O’sha tubsiz o’lkada
Ko’kka usar, xa dengizni,
Ko’targuncha yelkada.*

Mazkur misralarda inson umrining mehnat va mashaqqatlardan iborat ekanligiga kuchli ishora bor. Shoir hayotning ma’nosini ochish va aniq gavdalandirish uchun ajoyib hamda kutilmagan bir holat tanlagan. Ilk qarashda she’rdagi favqulodda tazod sal notabiiyroqdek tuyuladi: ne-ne ulkan tog’lar, zich qoyalaru harsang toshlarni bo’ysundirgan Bahri muhit, tubsiz o’lka va o’jar. Mag’rur. Yengilmas, o’z kuchiga ishongan nozik va nafis giyoh! Qarama-qarshi kuchlarning mohiyati va nisbatiga e’tibor bering. Xa, bu hayratomuz tazod beixtiyor qalbimizni entiktiradi – ulug’vor dengiz va mo’jaz giyohni uzoq vaqt unutib bo’lmaydi. Biroq bu – she’rdagi yagona konflikt emas. Unda yana bir ziddiyat mavjud. Mana shu konfliktning qarshi qutblarini esa yana giyoh – dengizni zarif yelkalarida ko’targancha, ko’kka, yuksaklikka bo’y cho’zayotgan giyoh esa “o’sha tubsiz o’lka”da tiz cho’kib, taqdirga tan berib yotgan og’ir xarsang toshlar tashkil etadi. Agar ta’bir joiz bo’lsa, ushbu ikkiyoqlama konflikt she’rdagi markaziy obraz qirralarini ochishga yordam bergan. Xususan, giyohning hayot tarzi va yashash falsafasi bilan ijodkor tabiati, intilishlari o’rtasida qandaydir teran bir uyg’unlik bor. Dengiz tublaridan osmonga, yorug’likka intilgan giyoh tasvirida yo’l boshida turgan ijodkor qismatiga ishora borligi shak-shubhasiz. Tabiiyki, u bilan bevoita mualliflarning taqdiri orasida ham ramziy bir eshlik va

hamohanglik bo'rtib ko'zga tashlanadi. Darhaqiqat, mo'jazzgina va erksevar giyoh, yosh shoirning umid va orzularini o'zida mujassam etuvchi to'ng'ich ramziy obrazlardan biri sifatida tug'ilgan edi.

“Buloq” she'rida ham ramziy obraz berilgan:

*Qutlug' bir saharda ko'z ochdi buloq,
Yo'l soldi daryolar sari adashib.
Unga rahm etmoqchi odamlar shu choq.
Tog'u toshlar aro yaqin yo'l ochib.
Odamlar, tegmangiz, mayli, toshsin u,
Mayliga tog'ni ham ko'rsin yo'lida.
Qo'ying, o'z yo'lini o'zi ochsin u
Zavqlanolsin u ham kurash so'ngida.*

Haqiqatan ham endigina ko'z ochgan yangi buloq bilan buyuk hayot ostonasida turgan qalamkashning holat-vaziyatlarida tabiiy bir o'xshashlik bor. Ular har ikkalasining oldida turgan eng muhim vazifa bu hayotda o'ziga yo'l ochish. Maqsadga yetish uchun esa qanchadan-qancha yo'llarni bosib o'tish, dovonlardan, tog'u toshlardan oshib o'tish lozim. Ixchamgina voqeaband she'rning tagidagi fikr ramziy ma'no shundan iboratki, hayot aslo rohat-farog'at emas, aksincha, mehnatu azoblarga to'la sinov maydonidir. Umrning ma'nosi – hayotning sirli hikmatlari o'sha zahmat va uqubatlarni o'z gardanida inab ko'rishda, bevosita ko'rish-kechirishdadir. Ayni shu sababli muallif yosh buloqqa “rahm etmoq”chi odamlarga “Qo'ying, o'z yo'lini o'zi ochsin u zavqlanolsin u ham kurash so'ngida” deya e'tiroz bildiradi. “Buloq” da ham asosiy qarama-qarshilik buloq bilan tog'u toshlar, ikkinchidan, nisbatan passivroq ziddiyat esa buloq va “rahmdil” odamlar o'rtasida mavjud. Ayon bo'ladiki, she'rdagi buloq – bu ramziy obraz. Bu obraz zamirida hayot haqidagi bezovta, behalovat o'ylar yotibdi. Shoir inson va uning murakkab hayot murakkab hayot bezovta, behalovat o'ylar yotibdi. Shoir inson va uning murakkab hayot yo'li haqidagi bezovta, behalovat o'ylar yotibdi. Shoir inson va uning murakkab hayot yo'li to'g'risida ana shunday obrazli fikr yuritadi.

II.2. Shoirning jonlantirish va o'xshatishdan foydalanish mahorati

O'xshash ko'chimlarning umumiy xususiyati shundaki, bularda ikki predmet (o'xshatilayotgan predmet va o'xshayotgan predmet) bir-biriga qiyoslanadi yoxud bir predmet (o'xshayotgan predmet)ning xususiyatlari boshqa predmet (o'xshatilayotgan predmet)ga ko'chiriladi. Shu tariqa, tasvir obyekti obrazli ifoda etadi. O'xshash ko'chimlar istiora (metafora), sifatlash, jonlantirish(tashxis), ramz (simvol), allegoriya kabi ko'rinishlardan tarkib topadi.

Istiora (arabcha omonatga olish; metafora ko'chirish) – ko'p qo'llaniladigan poetik ko'chimlardan biri. "Istioraning ma'nosi bir narsani omonatga olishdir".

Istiora ikki predmet yoki hodisa (o'xshatilayotgan va o'xshayotgan) o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanadi: o'xshatilayotgan narsaning xususiyatlari, sifati, belgilari ko'chirib o'tkaziladi.

Mehnat qilib qora tuproqdan

Oltin olding, seniki marra!

Yuqorida keltirilgan baytdagi "oltin" so'zi asil ma'nosida emas, ko'chma ma'nosida qo'llanilyapti: o'xshatilgan narsa ("paxta") tushirilib qoldirilgan va o'xshayotgan narsa ("oltin") berilgan – oltinga o'xshash xislatlar (uning nodirligi, bebaholigi, nafisligi) "paxta"ga ko'chirilgan.

Tabiat manzaralarini chizishda ham istioralar shoirga juda qo'l keladi.
Misol:

Na ko'kning fonari o'chmasdan,

Na yulduz sayr etib ko'chmasdan.

Na bulut silkitmay oltin par.

Na ufq o'ramay yoqut zar.

Tong kulmasdan burun turardi.

Bu parchaning birinchi misrasida "oy" so'zi o'rnida "ko'kning fonari", ikkinchi misrasida "tun chekinmasdan" deyish o'rniga "yulduz sayr etib ko'chmasdan", uchinchi misrasida "erta tong" deyish o'rniga "bulut silkitmay oltin

par”, to’rtinchi misrasida “tong otar” palla deyish o’rniga “ufq o’ramay zar” va, nihoyat, beshinchi misrasida “tong yorishi” deyish o’rniga “tong kulmasdan” leksik birikmalari ishlatilganki, bu leksik birikmalar, hech shubhasiz, istioralardir. Bu istioralar she’r matnida erta tong mahalini obrazli ifodalab, she’riy nutqqa o’ziga xos joziba baxsh etgan.

Istioralar rang-barang ko’rinishlarga ega: yopiq istioralar, ochiq istioralar, istioraviy sifatlashlar...

Agar o’xshatilayotgan narsa tushirilib qoldirilib, faqat o’xshayotgan narsalargina berilgan bo’lsa, ochiq istioralar paydo bo’ladi.

Misol:

Oq oltinning elini,
Bu elning oq gulini,
oq gullarning gulchisin...

(M.Shayxzoda)

Shoir bu o’rinda “Oq oltinning eli” deganda o’zbek xalqini, “oq gullarning gulchisin” deganda paxtakorlarni va, nihoyat, “oq gul” deganda g’o’zani nazarda tutmoqda. Har uchala misrada ham o’xshatilayotgan narsa (tasvirobyekti – o’zbek xalqi, paxtakor va g’o’za) tushirilib qoldirilib, faqat o’xshatayotgan narsa (“oq oltining eli”, “oq gullarning gulchisi” va “oq gul”) berilayaptiki, bular ochiq istioralardir.

Agar matnda o’xshatilayotgan narsalarning o’zigina bo’lib, o’xshagan narsa tushirilib qoldirilsa-yu, ayrim alomatlarini o’xshatilayotgan narsaga ko’chirilib o’tkazilgan bo’lsa, (shularsiz istiora bo’lmaydi) – yopiq istiora paydo bo’ladi.

Misol:

Bunda orzu qozonadi ot,
Bunda sevgi yozadi qanot.

(Hamid Olimjon)

Bu paytdagi “sevgi yozadi qanot” leksik birikmasiga e’tibor qiling: gap “sevgi” haqida ketayapti – tasvir obyekti – “sevgi” “qush”ga o’xshatilmoqda (buni biz “yozadi qanot” leksik birikmasidan bilib olamiz). “Qush” (“yozadi leksik

birikmasiga qarang), yana ham aniqrog'i, qushning qanot yozishi sevgining "gullab-yashnashi"ga o'xshatilayapti – sevgining "gullab yashnashi" qushning qanot yozishiga monanad ekanligi (qiyoslash usuli bilan)ga ishora qilinmoqda. Hamonki, sevgi (qush) qanot yozdimi, uning parvozi baland bo'lg'ay! Aftidan, shoir shunday demoqchi! Demak, "sevgi yozadi qanot" leksik birikmasi yopiq istiora ekan!

Ba'zan istiorada tasvir obyekti sifatlashlar vositasida ifodalanishi mumkin. Bu xil istioralar istioraviy sifatlashlar deb yuritiladi. Misol:

Kumush dalalarda boshlangan bayram,

Hamon davom etar o'lkamiz bo'ylab.

Bu baytdagi "kumush dalalar" leksik birikmasiga e'tibor qiling: "Kumush dala" – istiorali sifatlash. Negaki, shoir "dalalar" deganda O'zbekiston paxta dalalari (tasvir obyekti – o'xshatilayotgan narsa)ni va "kumush" deganda (o'xshagan narsa) O'zbekiston paxtazorlarining go'zalligini nazarda tutmoqda (paxtazorlar – dalalar kumushga o'xshatilmoqda, kumush esa paxtazorga o'xshayapti). Anglashilarliki, o'xshatotgan narsa ("kumush" – sifat, dala – ot; paxtazorlarning go'zalligi "kumush" sifatlashi vositasida ochilgan. Shoir paxtazorlar kumushdek ko'rkam demoqchi). Shunga ko'ra, "kumush dalalar" leksik birikmasi" – istiorali sifatlash bo'ladi.

Istiora o'z tabiatiga ko'ra o'xshatishlarga yaqin turadi: o'xshatish ham, istiora ham ikki predmetni bir-biriga qiyoslash orqali tasvir obyektni obrazli va aniq qilib ochadi. Shu vajdan, ayrim ilmiy asarlarda "istiora – yashirin o'xshatish", "istiora – yashirin o'xshatish", "istiora – qisqa o'xshatish"dir, degan fikrlar, menimcha, to'g'ri emas. Negaki, "o'xshatish" bilan "istiora" aynan bir narsa emas, ularning faqat o'zlarigagina xos bo'lgan xususiyatlari bor. Chunonchi, har qanday o'xshatishda (shu jumladan, qisqa o'xshatishda ham) kamida ikki unsur – o'xshatilayotgan narsa va o'xshayotgan narsa bo'lishi shart bo'lsa, istiorada shu unsurlarning faqat bittasi (ko'pincha o'xshagan narsa) bo'ladi, xolos. Bundan tashqari, o'xshatish (tashbih)da bizlar asil ma'noda qo'llansa, istiorada so'zlar ko'chma ma'noda ishlatiladi...

Sifatlash – badiiy adabiyot tilida predmet, voqea-hodisa, tushuncha va kishilarning belgi-xislatlarini aniqlash-izohlash, tavsiflash usuli. Sifatlovchi soʻz aniqlanmish soʻz bilan birikib, oʻz “xislat” belgilarini unga koʻchirgan holda muayyan hodisaning u yoki bu tomonlarini aniqlaydi. Masalan:

Kumush qishdan, zumrad bahordan

Qolishmaydi kuzning ziynati.

baytidagi “kumush qish”, “zumrad bahor” birikmalari – sifatlashdir. Sifatlash qoʻllashdan maqsad shulki, shoir shu vosita orqali tasvirlanayotgan hodisaning u yoki bu “xislati”ga kitobxonning diqqatini tortadi, unda emotsiya uygʻotadi.

Sifatlash istiora va metonimiya tamoyillari asosida ham hosil boʻlishi mumkin. Shu maʼnoda, sifatlashlar metaforik va metanimik sifatlashlarga ajraladi. Sifatlashlarning istiora va metanimiyadan farqi shundaki, sifatlashlar aniqlanmish soʻzlar bilan birikib kelsa, metafora va metonimiyalar mustaqil ifoda sifatida kelishi mumkin.

Sifatlash yoki badiiy aniqlovchi poetik nutqda katta oʻrin tutadi. Yozuvchi asarda istiora, metonimiya, tashbihlarni ishlatishi yoki ishlatmasligi mumkinu, ammo u, albatta, sifatlashlarni keng qoʻllaydi.

Jonlantirish - istioraning bir koʻrinishi. Jonlantirish odamlarga xos boʻlgan xislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda, qush kabilarga koʻchirish orqali paydo boʻadigan tasvir usulidir. Jonlantirish usuli tasvir obyektini boʻrttirib, qabartirib, yorqin va ravshan qilib tasvirlashga imkon beradi.

Mumtoz adabiyotimizda jonlantirishning ikki turi keng qoʻllanilgan: tashxis (shaxs bilan bogʻliq) – jonsiz narsalarni jonlantirish; intoq (nutq bilan bogʻliq) – nutqsiz narsalarni nutq egasi sifatida tasvirlash. Masalan, Gulhaniyning “Zarbulmasal”, Navoiyning “Lisonut-tayr” kabi asarlarida jonlantirishning har ikkala turi (tashxis va intoq) ham qoʻllanilgan. Xususan, xalq ogʻzaki ijodida jonlantirish koʻp ishlatilgan. Ertak, masal, dostonlarda qush, ot, oy, quyosh, shamol, yulduz, daraxt va hokazolar xuddi odam kabi soʻzlaydilar.

Nima uchun shoir va yozuvchilar tabiat tasviriga qayta-qayta murojaat qilaveradilar? Buni sabablaridan birini yuqorida aytib o'tdik. Ya'ni peyzaj – hayotni real in'ikos ettirish shakllaridan biridir. Badiiy adabiyotning asosiy tasvir obyekti bo'lgan inson hayotini aslo tabiatdan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Peyzaj badiiy tasvirning ajralmas, muhim qismlaridan biri ekanligi tabiat tasviriga bag'ishlangan maxsus janrning hamda maxsus badiiy tasvir vositasining yuzaga kelganligida ham ko'rinadi. Antik adabiyotda taraqqiy topgan idilliya janri ana shunday she'rlardan biridir. Idilliyada “xalq hayoti tabiat manzaralari fonida aks ettiriladi”, ularda jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlardan qochgan kishilarning tabiat qo'ynidagi beg'am-betashvish hayotlari qalamga olinadi. Bundan tashqari jonlantirish deb nomlangan badiiy san'at ham tabiat hodisalari va predmetlariga insonga xos xususiyatlarni ko'chirish asosida asosida paydo bo'lgan. Mumtoz adabiyotshunoslikda bu usul ikki ko'rinishda bo'lgan: tashxis shaxslantirish, ya'ni insonga xos xatti-harakatlarni jonsiz predmetlarga ko'chirish. Intoq – nutqlantirish, ya'ni jonsiz predmetlarni, hayvon va qushlarni gapirtirish. (Peyzaj maxsus tasviriy vositalarni yuzaga keltirishning asosiy omillaridan biridir. Rus adabiyotshunos olimlaridan biri S.Solovyov “Fyodor Dostoevskiy ijodida badiiy-tasviriy vositalar” degan kitobining bir bobini “Peyzaj” deb ataydi.)

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, “tabiat bilan bog'liq badiiy tasvir usullaridan eng keng tarqalgani jonlantirishdir. Jonlantirish barcha xalqlar adabiyotida uchraydi. Yozma adabiyotdagi bu stilistik usul animistik, totemistik qarashlar zaminida shakllangan. Chunki tabiat hodisalarni tushunmagan, ular oldida o'zini ojiz sezgan ibtidoiy ajdodlarimiz tabiatni jonli deb tasavvur qilganlar, bu haqda ko'plab asotirlar yaratganlar.

Abdulla Oripov ijodining dastlabki paytidanoq ohorli jonlantirishlar bilan o'z uslubiga ega ekanligini namoyish qildi. Mana, shoirning 1964 yilda yozilgan “Kuz manzarasi” she'ri:

*Kechki kuzak kirmoqda, nina izg'iron,
Dehqon ham tashlab ketdi qadrdon dala-qirin.*

Odatda, jonli nutqda “kuz keldi” deymiz. Aslida mana shu jumlaning o’zida ham jonlantirish bor. Chunki “kelish” harakati faqat jonli mavjudotga xos. Ammo shoir mana shu an’anaviy jonlantirishdan chekinib, “kechki kuzak kirmoqda” deydi. “Kirish” kechki kuzakning bizga yanayam yaqinlashganini “kelmoqda”dan ko’ra kuchliroq ifoda etadi. Chunki “kelish” cheksiz makonida sodir bo’lishi, bunda bir-biriga ta’sir zaifroq bo’lishi mumkin. “Kirish” so’zi esa makonni chegaralaydi, lirik qahramonning kuz bilan cheksiz koinotning chegaralangan bir xududida birga qolganligi, demak, ta’sirning ham kuchli bo’lishini ifoda etadi). Izg’irinning nina sochishi ham – shoirning organallikka intilishi natijasi. Chunki jonli nutqda “nina sanchar” deymiz. “Sochish” fe’lida ninaning ko’pligi, bunda esa izg’irinning kuchliligi ma’nosi yashiringan. Chunki bitta yoki ikki-uchta narsani sohib bo’lmaydi (“sochma miltiq” degan so’zni eslang, ehtimol “soch”dan kelib chiqqan bo’lishi mumkin). She’rning birinchi misrasidayoq yosh kitobxonni tabiat tasviri va so’z imkoniyatining kutilmagan manzarasi bilan ro’para qiladi.

She’r sakkiz misradan iborat. Kech kuzak tufayli bog’lar, huvillab qoladi. Qushlar yashil o’lkalarga uchib ketishadi, turna ham ketib qoladi, tabiat bo’shab qoladi. Atrofda o’lik mezonlargina kezinadi... Demak, kuchli izg’irin hammani har yoqqa haydagan. Faqat...

Qahrabo ko’z yosh to’kib turar faqat daraxtlar,

Ne qilsin, uchay desa, ularda yo’q, qanotlar.

Shoir yana jonlantirishga murojaaat qiladi: daraxtlar xuddi odamga o’xshab ko’z yosh to’kadi. Bu jonlantirish ham tashqi o’xshashlikka, ham ichki holatga asoslangan. Tashqi o’xshashlik “qahrabo” (sariq rangli tosh) so’zi orqali reallashgan. Ya’ni to’kilayotgan barglar tufayli daraxtlar yig’layotgan kishiga o’xshaydi. Yaproq – tashqi jihatdan ko’z yoshga o’xshash bo’ladi. Holat – ichki jihatdan esa sovuqda esa sovuqda qolgan kishining yig’lashi tabiiy kabi, daraxtlarning bu holati ham kishida e’tiroz tug’dirmaydi.

Jonlantirishning yana bir ko’rinishi – jonsiz predmetlarga odam kabi murojaat qilishdir. Bu hodisa Yevropa adabiyotshunosligida apostrofa deb yuritiladi. “Apostrofa – (grekcha Apostrophe – og’ish so’zidan) stilistik

figuralardan biri bo'lib, unda poetik jonsiz narsa va hodisaga jonli narsa va hodisadek yoki o'zi yo'q shaxsga xuddi ishtirok etayotgandek murojaat qilinadi". Abdulla Oripov she'riyatida apostrofa ko'p uchraydi. Masalan, u yulduzlarga ("Yulduzlar", "Yuzma-yuz"), tog'larga ("Tog'lar", "Keldim qoshingizga..."), daryoga ("Darband daryosi", "Qarshi qo'shig'i"), o'rmonga ("O'rmon"), dengizga ("Dengizga"), tuproqqa ("Men nechun sevaman O'zbekistonni?"), oftobga ("Momo oftob"), shamolga ("Yurtim shamoli"), qushga ("Qushchaga") murojaat qiladi. Shoirning tabiatga, uning predmetlariga murojaat qilishdan asosiy muddaosi, albatta, inson hayoti bilan, g'oyaviy niyat bilan bog'liq. Shoir ba'zan jamiyatdagi iztiroblarini tabiat bilan birlashish orqali kamaytirmoqchi bo'ladi, ba'zan esa tabiatdan najot axtaradi, ba'zan tabiat va jamiyat hodisalarida uyg'unlik ko'radi. Masalan, kuchli ijtimoiy ruh bilan bir-bir sayr etib, unda faqat urush-taloslarni, buzg'unchilik va adolatsizlikni ko'radi; keyin esa odamzodning tabiati xususida mushohada qilib, yanayam qayg'uliroq xayollarga beriladi. Shu iztiroblar og'ushida:

Do'stlar davrasida ketaman hatto,

Olis yulduzlarga ko'char xilqatim.

Shu tariqa tasavvurda o'zini yomonliklar urchigan zamindan uzib, balandlab, yulduzlarga makondosh bo'lib olgan shoir insoniyat tarixi va hayotidan topolmagan barcha ezguliklarni falakdan axtaradi:

Yulduzlar, yulduzlar siz mening uchun

Sofli va ma'sumlik bo'lib yondingiz.

Borim shudir, deya jovdirab sekin

Oq ko'ngil farzandim bo'lib qoldingiz.

Yo'q, yo'q! men sizlarga termilib bedor

Falak safarini o'ylaganim yo'q.

Yulduzlar men sizga boqqanda xumor

Qalbimda Yer ishqini bo'ladi to'liq.

Shu tariqa shoir xayolini bir zumga yulduzlarga ko'chirsa-da, bir zum falaklarni sayr etsa-da, ammo o'zining grajdanlik tuyg'usini, shoir sifatida ijtimoiy

burchini bir zum ham unutmaydi: u yulduzlarga boqib turib ham zaminiy hayot, inson hayoti, o'z xalqi haqida o'ylaydi. Yulduzlarga murojaatdan asosiy xalqni ulug'lash ekanligi keyingi misralardan oydinlashadi:

*Yulduzlar, bilmaysiz mening xalqimni,
Bundayin zahmatkash yer yuzida kam.
Yelda tinim bordir, unda yo'q tinim,
Shunday ishparastdir u munisginam.*

(Abdulla Oripov she'rlarida tabiat predmetlari metafora yaratish uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Metafora – o'xshashlik asosidagi ko'chimidir. Aslida o'xshatishning, demakki, metaforaning zamirida inson hayoti bilan bog'liq narsa-hodisalarini tabiatdagi narsa-hodisalarga muqoyasa qilish usul yotadi. Metafora aralashgach, badiiy obraz birma'nolilik illatidan qutuladi, obrazning badiiyligi metafora orqali saqlanib qoladi.

Olamni metaforik obraz tushunishga intilish bugunning mevasi emas.

Qadim “Kultegin”, “Tunyuquq” yodnomalarida, Bilga Xoqonning jang tasviri, “Qutadg'u bilig”dagi majoziy obrazlarida istioraviy bo'yoqlarning quyuqligi orqali ma'lum bir voqeaning, tabiat hodisasining ta'sir quvvatini, esda saqlanishini yana ham oshirishda kompozitsion usul sifatida qo'llangan.

Abdulla Oripovning she'rlarini metaforaning ishtiroki nuqtai nazaridan ikki guruhga ajratish mumkin.

1. Metafora asosiga qurilgan she'rlar. Bunda shoir tabiatdagi predmetni asos qilib oladida, shu metafora asosida katta ijtimoiy, falasafiy g'oyalarni beradi. Bu siraga “Burgut”, “Buloq”, “Giyoh”, “Darband daryosi”, “O'rmon”, “Dengizga”, “Momo oftob”, “Archa” singari qator she'rlarini kiritish mumkin.

2. Shoirning yana bir guruh she'rlari guruh she'rlari borki, ularda metafora yuqoridagi she'rlardagi kabikompozitsion asos vazifasini o'tmaydi, balki boshqa ko'plab stilistik figuralar qatorida ifoda etiladi. Ularda metafora bosh omil bo'lib hisoblanmaydi.

“Burgut” she'ri birinchi guruhga mansub bo'lib, unda juda chuqur ma'noli metaforadan foydalanilgan.

*Yosh burgut uchmoqda ko'kda shiddatkor.
Kumush bulutlarning to'zg'itib parin.
Uchmoqda, qalbida mag'rur ishonch bor,
Qaqshagan qoyalar, cho'qqilar sari.*

Mana shu kartina lirik qahramonda savollar silsilasini paydo qiladi: “Uchmoqda! Qayerga? Cho'qqiga! Nechun? Cho'qqi uzra mag'rur turdi-yu bir pas, Yana bo'ron misol qo'zg'aldi. Qayga?” burgutdagi shiddat lirik qahramonga ko'p ijobiy narsalar va'da qilmoqda. Ammo u o'z savollariga javob topa olmaydi va kutilmagan xulosa kelib chiqadi:

*Axir, ne bo'lardi, bersang, tabiat,
Shu buyuk shiddatga yarasha maqsad.*

Burgut – shunchaki bir parranda. Ammo badiiy asar markaziga qo'yilgan bu parranda o'quvchining xayolini Insoniyat hayotiga boshlab ketadi. Inson umr bo'yi yelib-yuguradi, katta-katta mansablarga, unvonga, boylikka erishadi. Ammo bulardan muddao nima? Agarda ezgulik, odamlarga yordam, xayrli amallar, insonparvarlik maqsad qilinmagan bo'lsa insonning jamiyki intilishlari hech bir muddaosiz o'zini qoyalarga urib, osmonning jamiyki intilishlari hech bir muddaoiz o'zini qoyalarga urib, osmonning eng baland tog'larida parvoz qilayotgan burgutning harakatlaridan farq qilmaydi. Demak, shoir umrni mazmun bilan to'ldirish, insoniylikka, atrofida qilargalarga yordam beradigan maqsadlar ko'zlashni targ'ib qiladi. Burgut obrazi jiddiy mushohada, g'oyaviy-falasafiy mundarija kasb etib, istioraviy obraz darajasiga ko'tariladi.

“Ko'z xayollari” she'rida lirik qahramon xazonrezgi faslini kuzatadi, tabiatning abadiy xodisasini inson hayotiga ko'chiradi. Natijada kuz manzaralari bilan “Inson manzaralari” (Nozim Hikmat turk shoiri) o'rtasida umumiy mushtaraklik idrok etiladi:

*Meni savollargako'mar daf'atan
Xazonning taqdiri, so'nggi shovqini.
Ko'zimga ko'rinir umrim qaytadan,
Garchand surmoqdaman bahor shavqini.*

*Garchand yigit yoshim yashnab tursa ham,
Keksalik qismatin o'ylayman shu dam.*

Abdulla Oripov she'rlaridagi inson va tabiatning xususan – holatlarini yonma-yon qo'yish, taqqoslash kuchli. Natijada bunday she'rlardagi obrazlar falsafiy umumlashma xususiyatiga ega bo'lib boraveradi, ma'no kengayib metaforiklashadi.

Ikkinchi guruhga kiritish mumkin bo'lgan “Hamza monologi” she'rida shunday bir band bor:

*Faylasuf emasman, askardirman chin,
Shoirman – g'azalxon ahli turganda.
Yiroq ufqlarni o'ylardim lekin
O'zimcha she'rimni kuylab yurganda.*

Ushbu parchadagi “yiroq ufqlar so'zi” metafora hisoblanadi. Uni o'z ma'nosida tushunish, shak-shubhasiz, mazmunni juda g'ariblashtirib, jo'nlashtirib qo'ygan bo'lardi. Yiroq ufqlar – bu yerda katta maqsadlar, orzu – umidlar, yuksak g'oyalar, istiqbol ma'nolariga ega. Mana shunday mazmundan mahrum har qanday shoirlik – kosiblikdan boshqa narsa emas. Yoki yana “O'g'lim Ilhomjonga” she'rida:

*Taqirda o'stirgan edim bir daraxt,
Mevamni terdilar, so'ngra yiqdilar, - deb yozadi.*

Bu bir daraxt nima? Uning mevalari-chi? Mana shu savollarning o'ziyoq daraxtning istiora ekanligidan dalolat beradi. Chunki istiora ham she'rdagi topishmoqqa o'xshaydi, shoir bir narsani tasvirlay turib, ikkinchi bir narsani nazarda tutadi. Bu parchadagi daraxt, istisnosiz, shoir ijodi. Uning mevalari esa bir-biridan diltortar, jozibali, mazmuni yuksak asarlaridir.

Abdulla Oripov she'rlarida faol qo'llangan badiiy san'atlardan yana biri tashbehdir. Ma'lumki, tasgbeh ikki narsa-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanadi. Akademik Alibek Rustamovning ko'rsatishicha, shoir tasavvurining darajasi ham mana shu o'xshashlikni topa olishda, bir-biruga monand ikki

hodisani tasavvur eta bilishida. Shuning uchun ham eng muhim vajhi shibx – o'xshash jihat deb hisoblaydi.

Abdulla Oripov tabiat bilan bog'liq juda mukammal o'xshatishlar topa oladi. Masalan, u "Qarshi qo'shig'i" she'rida "Oyoqlangan qo'ziday dovdirar elda maysa" deb ilk bahorning nozik maysalarini endigina tug'ilgan qo'ziga o'xshatsa, "Bahor" she'rida bulutlar orasidan milt-milt qilib ko'rinayotgan yulduzni uvada kamzuldagi billur tugmaga, "Qozog'iston" she'rida qozoq, sahrosini bepoyon xayolga, "Keldim qoshingizga..." she'rida yomg'irni chiltor (arfa – cholg'u asbobi) qillariga o'xshatadi. "Yana dalalarga boshlaydi havas" deb boshlanuvchi she'r esa butunisicha tabiat bilan bog'liq tashbehlar asosiga qurilgan. Shoir xazonlarni o'z qalbidan to'kilgan olovga, mezonlarni o'zining chuvalgan o'ylariga, kuzning sokin oftobini esa olisda qolgan muhabbatga o'xshatadi. She'rda o'xshatish kompozitsion asos sifatida maydonga chiqqan.

Ko'rinadiki, tabiat predmetlari, hodisalari Abdulla Oripov she'rlarida goh obyekt, goh subyekt sifatida ifoda etiladi. Boshqacha aytganda, ba'zan tabiat hodisalari va predmetlari boshqa narsalarga o'xshatilsa, ba'zan aksincha usul qo'llanadi. Ammo barcha o'xshatishlar vajhi-shibx – o'xshash jihatlarning mukammalligi bilan ajralib turadi, shoir tasavvurining g'oyat tiniq va takrorlanmasligidan dalolat berib turadi.

Xulosa

Biz tabiatning bir bo'lagidirmiz. Tabiat ona bo'lsa, biz uning vujudidan barpo bo'lgan va vaqtinchalikka ajralib chiqqan bolasidirmiz. Shuning uchun tabiatning har bir chizig'ida, detalida, hodisasida bizning rasmimiz va ruhimiz muhrlangan. Bu muhrni ochib ko'rsatuvchi shxs esa san'atkordir. Axir, shiddatimizda yozning va bahor daryolarning shiddati, isyonimizda yildirimning chaqnashi, hurriyat istagida – ozod qushlar hayoti, shamol yulqilab tushirolmayotgan yaproqda – hayotga yengib bo'lmas ishtiyoq va muhabbatmiz, tonggi oftobda – zo'rlik va istibdod zulmidan yorishgan ongimiz, sel va toshqinda – ruhning jilovlanmagan qudrati namoyon emasmi? "Hayotning buyuk salatanati bilan o'z qondoshligini, mushtarakligini, birligini anglamaslik emas, balki anglash tuyg'usi ruhimizni tabiatning sirli hodisalarida o'z aksini ko'rishga majbur etadi deb yozadi V.Belinskiy. – Chamasi, ruhimiz insonda shaxs bo'lib qaror topgan individualligi bilan umumdanda ajralib chiqqan sayin o'ziga qondoshligini sezishdan mahrum tabiat bilan yaxlitligini shu qadar jonliroq va teranroq anglay boshlaydi. Tabiatda bizning ruh yo'q, lekin bizda tabiat ruhi bor. Negaki borliqning qonuni shunday: oliy mavjuot pastrog'ini o'zida jamlagan bo'lishi shart. Ha, bizning ruhimizda tabiat bilan umumiylik bor va bu umumiylik hayotdir. Shuning uchun ham u ruhga shu qadar tushunarli va qardosh tilda "so'zlaydi". Xuddi mana shu so'zlar A.Oripov she'riyatida o'zining yana bir karra isbotini topgan. Abdulla Oripov "Yoshlik" she'rida "Lekin inoq edim aslim – tabiat bilan" deb yozsa, yana bir o'rinda "tomay-tomay degan tomchiday yulduz. Mening ruhiyatimga g'oyat munosib" deydi. Bu misralarda insonning tabiat bilan birligi o'zining yorqin ifodasini topgan. "Kuz xayollari" da esa o'qiymiz:

Yaproqlar bandida kezgan jimgina

Ma'yus va bezovta ko'zni ko'raman.

Uning qo'shig'ida, uning ohida

Sezaman odamzod qalbin gohida

Abdulla Oripov she'rlarida inson va tabiat mushtarakligi shu qadar yorqin ifoda topdiki, shoir tabiatning oddiy ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lmagan

shunday hodisalarini badiiy gavdalantirdiki, asl kasbi tabiatshunos bo'lgan akademik Jo'ra Saidov o'zini mana shunday e'tirofdan tiya olmadi: "Men tanqidchi emasman, tabiatshunosman. Shoirni - Abdulla Oripovni o'rganmoq uchun tabiat menga yoshligimni qaytarib bergudek bo'lsa, albatta adabiyotshunos bo'lardim. Faqat Abdulla Oripovni o'rganish uchungina shu sohani dilimga, shuurimga jo qilib olgan bo'lardim".

Mazkur malakaviy bitiruv ishi Abdulla Oripov she'riyatida peyzajning badiiy-estetik ifodasiga oid kichkina kuzatish, xolos. Abdulla Oripov ijodi bu mavzuda yirikroq ilmiy ishlar uchun ham material berishi aniq. Yuqoridagi dastlabki kuzatishlar esa quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. Peyzaj tabiat manzarasi badiiy adabiyotga, birinchidan, hayotni real tasvirlash, adabiyotning asosiy tasvir obyekti bo'lgan insonni uni o'ragan borliq bilan mushtaraklikda tasvirlash talabidan kelib chiqib beriladi; ikkinchidan esa, ijodkor tabiat manzarasini berishdan ma'lum g'oyaviy maqsadni nazarda tutadi. Shuning uchun ham har qanday tabiat manzarasi asarga olib kirilavermaydi.
2. Tabiat manzarasi qahramonning ruhiy holatiga muvoziy yoki kontrast holatda berilishi mumkin.
3. Ba'zi asarlarda peyzaj asarning g'oyaviy yechimi uchun hal qiluvchi rol o'ynaydi.
4. Lirik asarda peyzajning o'ziga xos badiiy-estetik vazifalari bor.
5. Shoir lirik asarda tabiat manzarasini berishi yoki tabiatga xos narsa-hodisalarni biror badiiy san'atning obyekti sifatida ishlatishi mumkin.
6. Tabiat manzarasi alohida olingan lirik janr janr (idilliya) hamda badiiy tasvir vositasi (jonlantirish)ning yuzaga kelishiga asos bo'lgan.
7. Abdulla Oripov she'rlarida peyzaj manzaralari ko'p uchraydi. Shoir ona O'zbekistonning oddiy ko'z bilan ilg'ash mushkul bo'lgan go'zal tabiat manzaralarini lirik planda ifoda etadi.

8. Abdulla Oripov she'rlarida tabiat tasvirlari o'ziga xos tarzda beriladi, bu manzaralar boshqa shoirlarnikiga o'xshamaydi. Bu manzaralar biror o'tkir ijtimoiy, falsafiy, badiiy g'oyani ifoda etishga xizmat qildiriladi.
9. Abdulla Oripov ijodidagi metaforik xarakterdagi she'rlarning kompozitsiyasi aksar ikkita qismni bir-biriga o'xshatish ("Ko'zgu parchalar"), zidlash ("Oh urib har yonda izg'iydi shamol") usullarida quriladi. Bunday she'rlarda metaforik mazmunning yuzaga chiqishida kompozitsion tafakkur, ya'ni she'ning muayyan bir tartibda qurilishi muhim ahamiyat kasb etadi.
10. Abdulla Oripovning lirik ijodida timsol she'rlarining she'r-metafora va she'r-allegoriya ko'rinishlari keng o'rin tutadi. She'r-metaforada lirik mushohada predmeti matnda ochiq aks etmaydi, u haqdagi hukm (predikat)gina bor. She'r-allegoriyadan farq etib, she'r-metaforada predmetni aniqlashtirish o'quvchiga havola etiladi. Ya'ni she'r-allegoriyada metaforik ma'no subyekti muallif bo'lsa, she'r-metaforada o'quvchi ma'no subyekti bo'lib qoladi.
11. She'r-metaforada mazmun strukturasidagi yuqoridagicha o'ziga xoslik tufayli unda turlicha talqin imkoniyatlari mavjud bo'ladi, shunga ko'ra bunday she'rdan turlicha mazmunlar chiqarilishi ("Tilla baliqcha", "Dorboz") tabiiy va qonuniy holdir.
12. A. Oripov ijodida 80-yillarga tomon allegoriya xarakteridagi she'rlar va she'r-allegoriyalar salmoqliroq o'rin tuta boshlaydiki, bu ijtimoiy sharoitning o'zgarib borishi, ya'ni so'z aytish imkonining kengayib borishi va adabiyot zimmasidagi tashviqiy funksiyaning dolzarblashuvi bilan bog'liqdir. Aksincha, shoirning she'r-metaforalari ko'proq so'z-fikr erkinligi bo'lmagan davr mahsulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor//
“O'zbek tili va adabiyoti”, 2009 yil, 4-son, 4-b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid,
baraqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent. O'zbekiston.
1997 yil.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent:
Ma'naviyat, 2008. – B. 29.
4. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 1tom. Adabiy asar. T.: “Fan”, 1978.
5. Rahimjonov N. Shoir va davr. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot
va san'at nashriyoti, 1983. – B. 182.
6. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. – Toshkent: “Fan”,
2007. – B. 259.
7. A.Aliev. Ijod va izlanishlar. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1973.
8. G'.Karimov. Xalq tarix, adabiyot. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1977.
9. X.Abdusamatov. Tarix va badiiy talqin. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti.
T.: 1995
- 10.H. Umurov. Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romanchiligi.
T.”Fan”,1983 yil.
10. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. Toshkent, O'zdavnashr, 1926, 78-bet.
11. Oripov A. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik, t-1. – T., 2001. – B.76.
12. Oripov A. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik, t-2. – T., 2001. – B.125.
13. Oripov A. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik, t-3. – T., 2001. – B.101.
14. Oripov A. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik, t-4. – T., 2001. – B.83.
15. Hudoyberganov N. Ishonch. T.: ”Adabiyot va san'at nashriyoti”, 1988 yil.
- 16.Qo'shjonov M. Hayot va qahramon. T.: ”Adabiyot va san'at nashriyoti”,
1979 yil.
17. Rahimov A. Hayot haqiqatini izlab. T.: ”Fan”, 1989 yil.
- 18.Hamdani U. Yangilanish ehtiyoji. – Toshkent: “Fan”, 2007. – B.194

- 19.Oripov A. Saylanma. 1-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000, 371—389-betlar.
- 20.Nosirov U. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. T.: "Fan", 1982 yil.
- 21.Karimov H. Milliy ozodlik kurashchilari va adabiyot. T.: "Fan", 1987 yil.

- 22.Sharipov H. Asiringman. – Toshkent: "Sharq", 2003. – B.349.
- 23.Eshbek Y. Ona Turkiston. Rivoyat –doston// "Sharq yulduzi", 2002 yil, 2-son, 3-10 – betlar.
- 24.Qo'chqor U. Shiroq. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1995. – B.30.
- 25.Qurbon Sh. So'z yo'li. Tarixiy doston// "Sharq yulduzi", 1991 yil, 2-son, 97-109-betlar.